

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'limi vazirligi

Qo'qon davlat pedagogika instituti

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishining

4-kurs talabasi

Aslonova Feruza Saloxidinovnaning

BITIRUV MALAKAVIY

ISHI

MAVZU: Maktabgacha ta'limmuassasalari tarbiyalanuvchilariga mehnat tarbiyasi berishning innovatsion usullari

Fakultet dekani: P.f.n.dots. B.Olimov

(Imzo)

Kafedra mudiri: M.Umarova

(Imzo)

Ilmiy rahbar: P.f.n.dots. B.Olimov

(Imzo)

Qo'qon-2020

MUNDARIJA

MAVZU:MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARI TARBIYALANUVCHILARIGA MEHNAT TARBIYASI BERISHNING INNOVATSION USULLARI

KIRISH -----

I-BOB.BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHDA MEHNAT TARBIYASINING ROLI

1.1.Maktabgacha ta'lim muassasalarida tashkil etiladiganmehnat tarbiyasining asosiy vazifalari va yo'nalishlari -----

1.2.Maktabgacha tarbiyayoshida mehnatning xususiyatlari va bolalarni uydagi mehnatga o'rgatish -----

1.3.Maktabgacha ta'limmuassasalarida mehnat tarbiyasining shakllari -

I-bob. Xulosa -----

II-BOB. MAKTABGACHA TA'LIMMUASSASALARIDA MEHNAT TARBIYASINING MAZMUNI

2.1Bog'cha yoshidagi bolalarnikattalar mehnatiga munosabatini shakllantirish yo'llari -----

2.2.Bolalarga mehnat tarbiyasi berishdaallomalarning fikrlari -----

2.3.Mashg'ulot ishlanmalari -----

Umumiy xulosa va tavsiyalar -----

Foydalanilgan adabiyotlarro'yxati -----

Ilova -----

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi: O'zbekiston Respublikasi prezidenti SH.Mirziyoyevning "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.¹Qaror maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish,bolalarning sifatli maktabgacha ta'limdan teng foydalanishini ta'minlash,maktabgacha ta'lim xizmatlarining nodavlat sektorlarini rivojlantirish maqsadida qabul qilinmoqda. Shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasalari bolalarning sog'lom va balanslashtirilgan ovqatlanishini,sifatli tibbiy parvarishini taminlash, ta'lim tizimiga innovatsiyalarni ilg'or pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish,maktabgacha ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirilgan, maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini moliyalashtirish shaffofligi va samaradorligini ta'minlash,maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarini tayyorlash,malakasini oshirish,tanlab olish va rivojlantirishga mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etish,maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy,estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish,bolalarni maktabgacha ta'limga qamrovini oshirish,undan teng foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash,mazkur sohada davlat xususiy sherikchiligini rivojlantirish kerakligi hozirgi kundagi muhim va dolzarb muammolardan hisoblanadi.Ta'kidlanganidek, ushbu buyuk maqsadga erishishda asosiy e'tibor, yosh avlodni barkamol ma'naviy va jismoniy sog'lom, yuqori malakali kasb egasi qilib tarbiyalashga qaratilganligi milliy an'analarimiz, mentalitetimizningo'ziga xos ifodalanishini e'tiborga olib islohotlar olib borish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.Jumladan, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni mehnatga yo'naltirish muhim o'ringa ega.Shu sababli ham, bugungi paytda bu sohada bir qator ijobiy o'zgarishlar ro'y bermoqda.

¹PQ-4312-son 08.05.2019 O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida

Kuzatishlarimizdan shunarsa ma'lum bo'ldiki, hozirgi kunda bolalarda mehnatga ongli munosabatni shakllantirish ishlariga o'rgatishga katta ehtiyoj sezilmoqda. Bolalarga har xil mehnat turlarini o'rgatib borish va har bir mashg'ulotlar jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga yordam beradigan jihatlarning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil etish, mazkur malakaviy ishning muammosi bo'lib, ayni paytda bu ishning dolzarbligini ham ko'rsatadi.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti: Maktabgacha ta'limmuassasalarining tarbiyalanuvchilari.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti: Bolalarni mehnat tarbiyasidagi faolligini rivojlantirish, ularda mehnatga bo'lgan qiziqish tuyg'ularini shakllantirish hamda maktabdagi o'quv jarayonlariga ham jismonan, ham aqlan tayyorlab berish.

Bitiruv malakaviy ishining vazifasi:

- barkamol avlodni tarbiyalashda mehnat tarbiyasini roli, mehnat tarbiyasining asosiy vazifalari va yo'nalishlarini bilish;
- maktabgacha tarbiya yoshida mehnatning xususiyatlari va bolalarni uydagi mehnatga o'rgatish;
- maktabgacha ta'limmuassasalarida mehnat tarbiyasining shakllari bilan tanishtirish;
- bog'cha yoshidagi bolalarni kattalar mehnatiga munosabatini shakllantirish yo'llari;

Bitiruv malakaviy ishining metodlari: kuzatish, suhbat, pedagogik tajriba, o'yin va turli xildagi pedagogic texnologiyalardan foydalanish.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi: Kirish, ikki bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlardan va ilovadan iborat.

I-BOB. BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHDA MEHNAT TARBIYASINING ROLI

1.1.Maktabgacha ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan mehnat tarbiyasining asosiy vazifalari va yo'nalishlari

Insonni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, xalqimizning azaliy orzusi bo'lib, ajdodlarimiz ma'rifat, ma'anaviyat va madaniyatni qanday qilib yosh avlodga o'rgatish, ularni komillikka yetaklash yo'llari, qonun qoidalarini muttasil izlaganlar. Mehnat inson hayoti uchun, uning farovon turmush kechirishi uchun hamisha asos bo'lib keladi. Mehnat faqat moddiy manbagina emas, el yurtga xizmat qilish, vatanimiz gullab yashnashi va uning qudratini oshirish manbai hamdur. Mehnat bolalarning barkamol bo'lib tarbiyalanishning asosiy omilidir. Shuning uchun, har bir bola maktabgacha ta'lim yoshidan boshlab mehnat jarayonida ishtirok etishi kerak. Bolalar bog'chasida oilada bajariladigan, murakkab bo'lmagan har bir topshiriq bolaning kundalik vazifasiga aylanishi lozim. Bola mehnatning ahamiyatini, mohiyatini tushinib yetishi uchun tarbiyachi kattalar bolalarning o'zlari bajaradigan mehnat turlarini kuzatish bo'yicha ekskursiyalar uyushtirish kerak. Mehnat bolalarda diqqat, o'tkir zehnilik, topqirlik, ijodkorlik qobiliyatini egallashni talab etadi. Shu sababli ham barkamol avlodni tarbiyalashda mehnat tarbiyasining roli juda muhimdir. Mehnat jarayoni bola nutqini yangi so'zlar bilan ham boyitadi. Bola mehnatning ahamiyati va mohiyatini tushunib yetishi uchun pedagog kattalarning mehnati, bolalarning o'zlari bajaradigan mehnat turlarini kuzatish yuzasidan ekskursiyalar uyushtiradi. Mehnat bolalarning jismoniy rivojlanishida ham zarur shartlardan biri hisoblanadi.

Barkamol avlodni tarbiyalashda mehnat tarbiyasining roli ahamiyatli hisoblanadi. Mehnat tarbiyasi-tarbiyaning muhim turi, shaxsni shakllantirishning zarur shartlaridan biri bo'lgan pedagogik jarayon. Mehnat tarbiyasi kishidan

ijtimoiy foydalimehnatga ichki ehtiyoj, tashkilotchilik, tashabbuskorlik, ishchanlik, ishning ko'zini bilish singari sifatlarni qaror toptirishga xizmat qiladi. Mehnat inson ehtiyojlarini qondirishning birinchi va asosiy vositasi bo'lganligi uchun ham mehnat tarbiyasi tarbiyaning boshqa hamma turlaridan oldin paydo bo'lgan. Mehnat tarbiyasi berish hamma zamonlarda ham jamiyat taraqqiyotning asosi, yoshlarni hayotga tayorlashning eng muhim vositasi bo'lib kelgan. Mehnat tarbiyasi, avvalo, oilada bola o'zini anglay boshlashi bilanaq, ularga dastlabki mehnat tarbiyasi berila boshlaydi. Shunday qilinmasa, bola faqat iste'molchiga aylanib qoladi va natijada u noshud va yalqovgina emas, ma'naviyati kemtik shaxs ham bo'lib shakllanishi mumkin. Bolalarga mehnat tarbiyasi berishda bog'chaning o'rni juda katta o'rin tutadi. Chunki, bu muassasalarda mehnat tarbiyasi ilmiy asosda tegishli mutaxassislar tomonidan uyushtiriladi. Mehnat tarbiyasini tashkil etishdagi asosiy jihat shundaki, u bolalarning yoshxususiyatlari, ruhiy aqliy va jismoniy imkoniyatlarga muvofiq bo'lishi lozim. Bolaning imkoniyatlaridan yengil mehnat tarbiyasi ularni zeriktirgani kabi, ularni imkoniyatlaridan og'ir topshiriqlar bolalarni bezdirishi mumkin. Mehnat tarbiyasi uchun maktab davri eng qulay fursatdir. Birinchi navbatda o'qish jarayonining o'zi og'ir mehnatdir. Maktabga o'z vaqtida kelib-ketish, o'qish yozishni o'rganish berilgan bilimlarni egallash uchun o'quchilarga mehnat tarbiyasi bog'cha paytidanoq berilgan bo'lishi kerak. Mehnat tarbiyasi berishda bolalarning bo'sh vaqtdan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Bolalarni o'quv rejasida ko'zda tutilgan mehnat, amaliyotini o'tashlarini to'g'ri tashkil etish ularni bolalar o'smirlar ijodiyot saroylari, uylari klublari va markazlari qoshidagi to'garaklarga ko'proq jalb qilish, yosh avlodni komil shaxslar sifatida shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Mehnat tarbiyasi bolalarga mehnatnimohiyatini chuqur anglatish, ularda mehnatga ongli munosabat shuningdek, muayyan ijtimoiy foydali harakat ko'nikma va malakani shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon ham hioblanadi. Mehnat tarbiyasini shunday tashkil etish kerakki, inson mehnat jarayoni va uning natijasidan qanoatlanishini tarkib toptirishga ko'maklashsin. Mehnat tarbiyasining pirovard maqsadi shaxs harakatlarining asosiy xislati sifatida uning mehnatga

bo'lgan ehtiyojini shakllantirishdir. Mehnat tarbiyasining maqsadi, bolalarda mehnatga ongli munosabatni singdirishdir.

Yosh avlodda mehnat qilish istagini qaror toptirish va ularni zamonaviy ishlab chiqarishning turli sohalarida faoliyat yuritishga tayyorlash.



Bolalarda jamiyat manfaati yo'lida mehnat qilish ehtiyojini hosil qilish.

Ularning aqliy qobiliyatini rivojlantirish.

Bolalarni olgan bilimlarini uzluksiz ravishda takomillashtirib borishlari uchun zarur shart sharoitni yaratish.

Mazkur vazifalar tizimida bolalarni mehnatga psixologik va amaliy jihatdan tayyorlash ularni qiziqish va qobilyatlarini aniqlash orqali amalga oshiriladi. Mehnat tarbiyasi bolalarning aqliy, ma'naviy, axloqiy, jismoniy va estetik tarbiyasi bilan o'zaro bog'liqdir. Mehnat tarbiyasining samaradorligi bolani mehnat faoliyatiga tayyorlash jarayonida har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalash vazifasibilanbelgilanadi. Mehnat tarbiyasi axloqiy tarbiyaning asosiy vositasi hisoblanadi. Chunki, mehnat faoliyati yordamida bolada mehnatsevarlik intizimlilik irodalilik tashabuskorlik mustaqil harakat qilish kabi ahloqiy xislatlar ham shakllanadi. Mehnat tarbiyasi estetik tarbiya bilan mustahkam aloqada olib boriladi. Mehnat tarbiyasi mazmuniga estetik elementlarni singdirish asosida uni

amalga oshirish katta ahamiyat kasb etadi. Mehnatda go'zalliko'z mehnatidan zavqlanish, uning yanada samarali kechishiga yordam beradi. Mehnat tarbiyasida bir nechta mezonlarni asos qilishimiz mumkin.

-Bolalar ixtiyoriy mehnat qilishlari;

-Ularda mehnat qilmay hayot kechiruvchilarga nisbatan yomon fikr uyg'otish;

-Mehnatda javobgarlikni his etish tuyg'usini tarbiyalash;

-Bolalarda mehnat va mehnat ahliga hurmat tuyg'ularini qaror toptirish;

-Mehnatda ijodkorlikni qo'llab quvvatlash;

Bunda do'stlik o'rtoqlik va hamkorlikka erishish tuyg'ularini shakllantirish.

Bu mezonlar asosida bolalarni o'zi yoqtirgan faoliyatiga tayyorlash jarayonini barcha ta'lim tarbiya ishlarini talablarga mos ravishda olibboorish zarur.

Maktabgacha ta'lim muassasasidagi mehnat tarbiyasining vazifalari xilma-xil bo'lib ularni uch katta guruhga tasnif etish mumkin.

Birinchi guruh vazifalari bolalarning mustaqil mehnat faoliyatiga pedagogik ta'sir ko'rsatish bilan belgilanadi:

1) Bolalarni maqsad qo'yishga, mehnat ko'nikma va malakalarini, mehnat madaniyati bo'yicha kerakli materiallar va mehnat qurollarini tanlab olishga o'rgatish.

2) Bolalarda bo'lajak mehnat faoliyatini shakllantirish, mehnat jarayonlarini mehnatda qatnashuvchilar o'rtasida taqsimlash, mehnatda yaxshi natijalarga erishish malakalarini shakllantirish.

3) Mehnat faoliyatining dastlabki ijtimoiy sabablarini shakllantirish, buyumlar va harakalarga qiziqish uyg'otish orqali mehnatnatijalariga erishish katta guruhlarda esa mehnatning ijtimoiy ahamiyatli ekanligini anglab yetish.

Ikkinchi guruh vazifalari kattalar mehnatiga ijobiy munosabatni tarbiyalashga qaratilgan.

- 1) Bolalarga kattalarni qanday natijalarga erishish uchun mehnat qilayotganini tushuntirish.
- 2) Bolalarga mehnat ahliga hurmatni, ularga qo'ldan kelganicha yordam berish xoxishlarini tarbiyalash.
- 3) Kattalarning mehnat natijalarini asrab avaylashga o'rgatish.

Uchinchi guruh vazifalari mehnat faoliyatida bola shaxsini shakllantirishga qaratilgan.

- 1) Bolalarda mehnat sevarlik, har qanday mehnatga qatnashish ,boshlagan ishini oxiriga yetkazish uchun bor kuchini ayamalik ,o'z shaxsiy mehnatiga nisbatan to'g'ri munosabatni tarbiyalash.
- 2) Javobgarlik, mustaqil maqsadga qaratilganlik, qatiylik, tashabbuskorlik va faollik,sabr- matonatlilik, chidamlilik kabi bola shaxsining axloqiy sifatlarini tarbiyalash.
- 3) Madaniy xulq va o'z tengdoshlariga nisbatan ijobiy munosabatni tarbiyalash, o'zaro kelishgan holda birga ishlay olish, jamoa ishida natijaga erishguncha o'z mehnati bilan qatnashish o'zi va o'rtog'larining mehnatini xolisona baholash yordam berish.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida mehnat tarbiyasi ikki yo'nalishda amalga oshiriladi.

1-Kattalar mehnati bilan tanishtirish.

2-Bolalarning o'zini mehnatga o'rgatish.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni kattalar mehnati bilan tanishtirish orqali, ularga kattalar mehnati ijtimoiy foydali ishlab chiqarish mehnati bo'lib, moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratishga qaratilganligi haqida tushuncha berish, kattalar mehnati haqida aniq bilim va tasvvur hosil qilish, mehnat va mehnat natijalarini qadrlashga o'rgatish, mehnatga qiziqish va muhabbatni uyg'otish, mehnat qilish xohishini tarbiyalash kabilar amalga oshiriladi. Kattalar mehnati bilan tanishtirish

“Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar rivojlanishiga qo’yiladigan davlat talablari, asosida ishlab chiqilgan “Bolajon” tayanch dasturining”, Atrof olam to’g’risida bilimga ega bo’lish va uni anglash” bo’limida berilgan. Har bir yosh guruhidagi bolalar kattalar mehnati to’g’risida



quyidagi bilim va tasavvurlarni egallab olishlari lozim:

- Ilk yosh guruhida: 1- Kattalar mehnatiga qiziqishni tarbiyalash.

2- Maktabgacha ta’lim mussasalari hodimlarining mehnat jarayonlari bilan tanishtirish.

3- Bolalarga kattalarning mehnatini hurmat qilish tuyg’usini shakllantirish.

Kichik yosh guruhda:

1- Kattalar mehnati natijasida kerakli narsalar, predmetlar yaratishini tushuntirish.

2- Oshpaz, kiriyuvuvchi sotuvchi, quruvchi, haydovchi mehnati va ularning asosiy ishlari haqida bilim berish. 3- Ish natijasi va uning ahamiyatini ajratib ko’rsatishga o’rgatish.

3-Kattalar mehnati uchun zarur bo’ladigan materiallar, kishilar mehnatining yengillashtiradigan, mehnat jarayoni va natijalariga erishishni tezlashtiradigan mashinalar bilan tanishtirish.

4- Turli transport vositalari va kasblar haqida tushuncha berish. Bolalarni bu borada bilimlarining kengaytirish va ularning nomlarini to’g’ri aytishga odatlantirish.

O'rta guruhda:

- 1- Bolalarda kattalar mehnatiga hurmat qiziqish hissini tarbiyalash.
- 2- O'zbek xalqining milliy hunarmandchilik mehnati duradgorlik bilan tanishtirish.
- 3- Dehqon mehnati haqida ma'lumot berish.
- 4- Bolalarni o'z tarbiyachisi va boshqalatr mehnati haqidagi tushunchalarni kengaytirish.
- 5- Bolalarni kattalar mehnati bilan tanishtirishda ularda inson va uning mehnatiga hurmat hissini shakllantirishga e'tiborni kuchaytirish.

Katta guruhda:

- 1-Bolalarning kattalar mehnati haqidagi tasavvurlarini umumlashtirish.
- 2- Ishlab chiqarish korxonalari, qurilishlar dalalarda mehnat qilinadigan mehnat haqidagi bilimlarini takomillashtirish.
- 3.Mehnatning shu joyda tarqalgan turlari bilan bolalarni yaqindan tanishtirish.
- 4- Ularni yaqin atrofdagi korxonaga olib borish (Mebel, avtomobil, televizor, chinni ishlab chiqaruvchi korxonalar, novvoyxona va h.k). Bu korxonaning nomi u yerda kimlar ishlashi, qanday mahsulot ishlab chiqarishi mehnat quroli va asboblari haqidagi bilimlarini aniqlash va takomillashtirish.
- 5- Ular ishlab chiqarayotgan mahsulotlarni mamalakat aholisi uchun ahamiyati bilan tanishtirish. Mashinasozlik, tikuvchi kosb nonvoy oshpaz o'ymakor haydovchi kabi kasblar bilan tanishtirish. Ishning maqsadi, natijasi va ularning jamiyat uchun ahamiyati, turli xil aqliy mashinalarning kishilar mehnatini yengillashtirish , tovarlar sifatini yaxshilash va ishlab chiqarishni tezlashtirishdagi roli haqidagi bilimlarni kengaytirish. Maktabga tayyorlv guruhida; Bolalarni zargarlik, zardo'zlik, misgarlik kabi xalq hunarmandchiligi bilan tanishhtirish,bolalarni kattalar mehnati haqidagi tasavvurlarini rivojlantirish,



kishilar mehnatiga hurmat hissini tarbiyalashni davom ettirish, bolalarga dehqonchilik, chorvachilik haqida soʻzlab berish va ularni dehqon, chorvador va bogʻbon mehnatining mazmuni bilan tanishtirish. bozor haqida tushuncha berish, pochta aloqasi xizmati bilan tanishtirish, pochtaning vazifasi va ahamiyati haqida maʼlumot berish. Buyumlarni bir necha xil belgilari va ulardan foydalanish haqida tushuncha berish. Matodan qilingan buyumlar ularning turi va foydalanish usullari haqida tushuncha berish. Temir va yogʻochdan ishlangan buyumlar ularning turlari ulardan toʻgʻri foydalanish haqida tushuncha berish. **Maktabgacha taʼlim yoshidagi bolalarmehnatini tashkil etishda mehnatning quydagi turlaridan foydalaniladi.** Asosiy turlari: 1-oʻz oʻziga xizmat. 2- xoʻjalik maishiy mehnat. 3- tabiat quchogʻidagi mehnat. 4- qoʻl mehnati. Oʻz oʻziga xizmat-bolalar mehnatining bir turi boʻlib, unda bolalar ilk yoshidan boshlab mustaqil ovqatlanishga, yuvinishga, ovqatlanishga va yechinishga, oʻyinchoqlarni yigʻishtirib qoʻyishga oʻrgatiladi. Oʻz oʻziga xizmat qilish jarayonida bolalarda mustaqillik mʼlum maqsad bilan harakat qilish kabi sifatlar shakllanadi. Bolalar mustaqil ravishda oʻzlarining qoʻllaridan kelgan ishni bajarishga oʻrganadilar. Oʻz oʻziga xizmat qilish bolalarda oddiy mehnat turlariga nisbatan qiziqish uygʻotadi, batartiblikka, intizomli boʻlishga, xulq, odobga oʻrgatadi. Bolalar xoʻjalik-maishiy mehnatga MTM va oilada jalb etiladi. Xoʻjalik maishiy mehnatga xona va maydonchani yigʻishtirish, choy idishlarini, qoʻgʻirchoq kiyimlarini, mayda narsalarni yuvish, mashgʻulotga kerakli materialni tayyorlab qoʻyish, mashgʻulotdan keyin stol ustidagi narsalarni yigʻishtirib olish kabilarni kiritishimiz mumkin. Tabiatdagi mehnat bolaning har tomonlama rivojlanishida muhim ahamiyatga ega boʻlib oʻsimlik va hayvonlar yil fasllari jonsiz tabiat burchagidagi bilimlar manbayi bolalarda mehnatsevarlikni tabiatga maʼsulyatli munosabatni shakllantirish vositasidir, shu bilan birga bolalar mehnatning bu turi

orqali tuproqni ekishga tayyorlash va o'g'itlash, ko'chat o'tkazish, o'simlik va hayvonlarni parvarish qilish kabi bir qancha mehnat, ko'nikma va malakalarini egallab oladilar. Mehnatning asosan ochiq havoda tashkil etilishi bolalar organizmini chiniqtiradi ularning soglig'ini mustahkamlaydi. Tabiatdagi mehnat bolada bilishga qiziqishni rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Bolalar jonli obektning o'sishi va rivojlanishini kuzatadilar, ayrim o'simlik va hayvonlarning o'ziga xosliklarini bilib oladilar. Tajribalarni o'tkazishda ishtirok etadilar. Qo'l mehnati-mashg'ulot o'yinlariga mehnat faoliyati uchun zarur bo'lgan o'yinchoq va qurilmalar(qog'oz qiyqimlarini tashlash uchun, o'simliklar urug'I uchun qutichalar, qo'g'irchoq kiyimlari, qalpoqchalar, niqoblar va shunga o'xshash narsalar)ni tayyorlash bo'yicha bolalar mehnatidir. Qo'l mehnatini bajarish orqali bola aniq natijaga erishadi ya'ni narsa buyumlar vujudga keladi. Bolalar yopishtirish,bo'yash,qirqish, arralash, mix qoqish, tikish va shunga o'xshash oddiy mehnat ko'nikma va malakalarini egallab oladilar. Ularda ijodkorlik,topqirlik, zehnlilik xislatlari rivojlanadi.

1.2 Maktabgacha tarbiya yoshida mehnatning xususiyatlari va bolalarni uydagi mehnatga o'rgatish

Maktabgacha tarbiya yoshida mehnatning xususiyatlari, bolalarning mehnat faoliyatini o'zida qamragan mashg'ulotlar, asosan, bog'cha yoshidagi davrdan boshlanadi. Bu yoshda bolalarning mehnatlari juda sodda va elementlar bo'lsa ham ularning psixik taraqqiyotlarida juda katta ahamiyatga egadir. Bog'cha yoshidagi bolalar bilan o'tkaziladigan suhbatlar natijasida bolalarda mehnatga nisbatan ijobiy munosabat, mehnat qilish ishtiyoqi tug'iladi. Bog'cha yoshidagi bolalarning ishiga baho berib borish, ularda mehnatga yanada qiziqishlarini orttirishda katta rol o'ynaydi. Bolalar kuchlari yetadigan ishlarni bajarayotganlarida ko'p xatolarga yo'l qo'yishlari turgan gap, lekin bunda bolalarni mehnatga jalb qilmaslik kerak, bolalarning bajaradigan ishlarini kattalarning o'zlari qilib qo'yishlari mumkin, degan ma'no kelib chiqadi. Sharq xalqlarida birmaqol bor "Bolaga ish buyur, ketidan o'zing yugur". Bu juda to'g'ri hayotiy gap. Bu bolalarga biror yumush buyurilganda, uni qanday bajaraolayotganliklariga ko'zquloq bo'lib turish shartdir. Bolalarda, xususan, kichik yoshdagi bog'cha bolalarida hali mehnat malakalari yo'q, qo'l muskullari yaxshi rivojlanmagan bo'ladi. Ana shuning uchun, bolalar qasddan yoki anqovliklaridan emas, balki eplay olmasliklaridan biror narsani tushirib, sindirib yuborishlari mumkin. Shunday falokat yuz berganda, bolani anqov, merov, ko'zingga qarasang bo'lmaydimi? –deb urishish yoki koyish yaramaydi. Buning o'rniga, bolaga shu mehnatni qanday qilib bajarishni ko'rsatib berish lozim. Bog'cha yoshidagi bolalarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda ularni inoq jamoaga uyushtirish katta ahamiyatga egadir. Jamoa bo'lib mehnat qilishda, tarbiyachi har bir bolaga ma'lum bir mehnatni bajarishni buyuradi. Shu tariqa bolalar jips jamoa bo'lib mehnat faoliyati bilan shug'ullanadilar. Masalan, katta guruh bolalari jamoa bo'lib navbatchilik qiladilar. Bunda bir bola stolga dasturxon yozibchiqsa, ikkinchisi qoshiq va vilkalarni qo'yib chiqadi, uchinchi bola stolchalarni qo'yib chiqsa, to'rtinchi bola stolga nonlarni qo'yib chiqadi. Bog'chada navbatchilikka o'rgangan bolalar oilada ham yordamlashadigan bo'ladilar. Umuman, o'rta va katta yoshdagi bog'cha bolalariga oilada kuchlari

yetadigan mehnatpishiriqlarini berish kerak. Bu ularni mehnatsevarlikka va shu ruhda tarbiyalashga hamda ularda ayrim mehnat malakalari hosil bo'lishi uchun juda katta imkoniyatlar yaratadi. Ijtimoiy foydali mehnatda ishtirok etmagan bolani keyinchalik, mehnatga jalb qilish juda qiyin bo'ladi. Bog'chada bolalar jalb qilinadigan mehnat faoliyatining turi juda xilma-xildir. Masalan, tabiat burchagidagi jonivor yoki o'simliklarni parvarish qilish, bog'cha hovlisida ishlash, oshxonada va guruhda navbatchilik qilish, kichkintoylarni kiyintirishga yordam berish va boshqalar. Shuni ham aytib o'tish kerakki, kichik yoshdagi bog'cha bolalari o'zarining mehnat faoliyatlarini hali yo'lga qo'ya olmaydilar. Shuning uchun, ular mehnatning juda soddalari bilan ya'ni, o'simliklarga suv quyish, baliqlarga ovqat berish, hovliga suv sepish va shu kabilar bilan shug'ullanadilar. O'rta va katta guruh bolalari mehnat faoliyatini o'yindan batamom, farqlab unga nisbatan jiddiy munosabatda bo'la boshlaydilar. Ular mehnatdan kelib chiqadigan natijani ya'ni, mehnatning ijtimoiy mohiyatini, kim uchun, nima uchun lozimligini tushunadilar. Ular kattalarning oiladagi uy ro'zg'or



ishlariga zo'r ishtiyoq bilan yondashadilar kichkintoylar uchun qog'oz kardon, faner va plastlindan turli o'yinchoqlar yasaydilar. Pedagogik jihatdan to'g'ri tashkilqilingan

mehnat faoliyati bolalarning har tomonlama ya'ni, ham jismoniy, ham psixologik, ham estetik, ham axloqiy tomondan barkamol rivojlanishlariga juda katta ta'sir qiladi. Bog'cha bolalari biron o'yin, ta'lim yoki mehnat faoliyati bilan mashg'ul bo'lar ekan, ular asosida harakatga soluvchi mayllar yotadi. Kichik bog'cha yoshidagi bolalarning xatti-harakatlari amalga oshirilayotgan sharoitga bogliq bo'ladi. Ular xatti -harakat motivlarini anglab ham yetmaydilar. Shuning uchun,

ko'pincha o'zlariga mutloqo hisobot bermay, ma'lum bir vaziyatda u yoki bu xatti-harakatni amalga oshira boshlaydilar. Maktabgacha yoshdagi bola serharakat, serg'ayrat bo'lib, u o'zini o'rab olgan olamni tezroq bilib olishga intiladi. Bolaning harakatchanligi har narsani bilishga qiziqishi, havaskorligi va mustaqil ish qilishga intilishi maktabgacha yoshdagibolaning harakterlik xususyatlaridandir. Bu xususiyatlar, avvalo, bolalarning o'yinlarida aks etadi. Bolaning tashqi dunyoga bo'lgan munosabati o'yinlarda o'z ifodasini topadi. O'yin bolani mehnatda tez charchamasligi uchun ham, jismoniy rivojlanishi uchun ham zarurdir. Bolalar o'z o'yinlarida atrofdagihayotni aks ettiradilar. Maktabgacha yoshdagi bolalarda atrofdagi buyumlarni sezish va idrok qilish bilan juda ko'p aniq tasavvurlar paydo bo'ladi. Bu yoshdagi bolalarning fikrlashi juda aniqdir. Ular o'zlarining o'yinlaridakattalarga taqlid qilishni yaxshi ko'radilar. Masalan: o'g'il bolalar ko'pchilik vaqtda askarlarga taqlid qilib, dushman ustidan g'alaba qozonishni o'zlariga o'yin qilib olsalar, qiz bolalar ko'pincha qo'g'irchoq o'ynaydilar hamda o'z o'yinlarida uy-ro'zg'or tutishga tegishli hamma ishni qiladilar. Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'yinlarida bazan ularning kasblarga bo'lgan qiziqishlari ham nomoyon bo'ladi. Bir oiladagi beshta boladan to'rttasi oq halat kiygan shifokorni ko'rishi bilan onasini pinjiga kirib qo'rqib yig'lasalar, onasi bergan dorini ichmasalar, beshinchisi dorini gap so'zsiz ichadi, chunki, u ko'p vaqt doctor opa bo'lib o'ynagan. U o'z opa singillariga cho'pdan yasalgan termometrni qo'yib ularning issig'ini o'lchagan, gugurt bilan ukol qilgan. Bazan bolaning stolini yerga yotqizib uni mashina qilib haydaganini mashina yurg'izishdagi qoidalarni amalga oshirishga harakat qilayotganini ko'rish mumkin. Bola o'yinchoqlarini bir burchakka tartib bilan terib qo'yadi, qo'g'irchoqlarni joy-joyiga o'tqazadi. Bola mehnat o'yini bilan chegaralanib qolmaydi. U o'ziga sotib olib berilgan o'yinchoqlardan tashqari qo'lga tushgan har bir narsani to'plab boradi, va ularni o'z o'yinida qo'llab o'zining qurilish ishlarida ishlatadi. Bolalar to'p-to'p bo'lib o'ynaganlarida rahbar bo'lishni, hammasi faqat insoniy, yaxshi rolni o'yashni va albatta g'alaba qozonishni istaydilar. Ko'pgina yirik pedagoglar o'yinni mehnatga tayyorgarlik deb hisoblaydilar. A.S Makarenko: "Bola o'yinda qanday bo'lsa katta

bo'lganida ishda ham ko'p jihatdan shunday bo'ladi" deydi. Buyuk pedagogning aytishi bo'yicha, yaxshi o'yin yaxshi ishga o'xshaydi, har bir yaxshi o'yinni birinchi xususiyati ishchanlik va fikrni zo'r berib ishlatishdir. O'yin bolani quvontiradi, yaxshi ish ham huddi shunday shodlik beradi. Ishdagi javobgarlik qanchalik kattabo'lsa o'yindagi javobgarlik ham bamisoli shundaydir, bu ayniqsa, bolalarning ko'pchilik bo'lib, jamoa bo'lib o'ynaydigan o'yinlarga ko'proq taalluqlidir. Shuni ham aytish kerakki, tarbiyachila, ota-onalar bolalarning o'yinlarini tashkil qilganda va o'tkazganda, ularga o'yinchoqlar olib berganda, hech kimga berma demasliklari kerak, chunki, biz faqat o'zinigina deyuvchi xudbinlarni emas, balki jamoa a'zosini tarbiyalashimiz kerakdir. Bolalar o'yini bilan bolalaro'zaro uzviy bog'liq bo'lib o'yin bolalar yoshiga organik bog'langan faoliyatdir. Bu borada **Maksim Gorkiy**: Bola uch yoshgacha ko'ngil ochadigan o'yinlarni istaydi, uning istagi biologik jihatdan qonuniydir. U o'ynashni xohlaydi, u hamma o'yinlarni o'ynaydi va o'z atrofidagi dunyoning hammadan ko'ra o'yinda, o'yin orqali yaxshi va osonroq biladi, taniydi deb yozgan edi. O'yinda bolalarning moyilligi va qishloqlari atrofidagi hayotga bo'lgan munosabatlari aniq ko'rinadi. Hullas o'yin bolalarni mehnatga o'rgatishning eng muhim vositalaridan biri bo'lib sanaladi. Shuning uchun mohir tarbiyachilar ota-onalar tomonidan ustalik bilan yaxshi tashkil etilgan o'yin bolalarni nafaqat mehnat, balki aqliy jismoniy va axloqiy jihatdan ham, to'g'ri tarbiyalashga yordam beradi va shu bilan ularni hayotga, amaliy faoliyatga tayyorlaydi. 2-3 yosh boladahamma ishni o'zi bajarishga intilish kata bo'ladi. Uning har bir narsani o'zi olishiga, har bir ishni o'zi qilishga intilishi tabiiydir. Uni hech kim majbur qilmaydi, lekin qilgan ishini samarasi uni hursand qiladi. Demak, shunday ekan ota-onalar bolalarini yoshligidanoq mehnat qilishga psixologik jihatdan tayyorlab borishlari kerak. Avvalo bolani o'ziga- o'zi xizmat qilishga o'rgatish kerak. Chunki, bolaning ishni o'zi qilishga bo'lgan qiziqishi asta -sekin oilada tarbiyalanadi. Ota-onaning talabi bo'yicha bola o'zining kiyimlarini kiyadi. Agar 2-3 yosh bolaga kiyinish va kiyinishni o'rgatmasdan uni o'ziga qo'yib bersangiz, u bu ishni mustaqil bajaradi: paypog'ini tovonini albatta oyog'ining yuziga qilib kiyadi, tugmasini pastiga qilib

qiyshiq qadaydi, botinkalarini poyma-poy kiyadi. Yuz yuvishda esa, faqat ho'l qo'llarini yuziga ishqalab, uni tozalash bir yoqda tursin, aksincha, iflos qilib qo'yadi. Shu bilan birga, bola o'z ishini bajarib bo'lgandan keyin ham jismonan, ham manan charchaydi, aft -angori kulguli, o'zi beso'naqay bo'ladi sababi: bolada mana shu ishlarni bajarish iqtidori va ko'nikmasi yo'q. Ba'zi ota-onalar bolalarini birorta ishni bajarishda beso'naqayligini, ishni tez bajaraolmasligini ko'rib bolalariga ish topshirmaydilarr yoki topshirgan taqdirda ham bu ishni o'zlari ado qilib qo'ya qolishadi. Natijada bola kundan kunga mehnat qilishdan uzoqlashadi, yoki qilayotgan ishini oxirigacha yetkazmasdan oyimning o'zlari qilib oladilar deb tinchib doimo biron kishining yordamiga tayanib, shunga o'rganib o'sadi. Ota-onalar, tarbiyachilar, oila a'zolari bolalari oldiga yangi vazifalar qo'yib, ishni bajarishni o'rgatib, tushuntirib va asosan, ishni bajarish tartibini shoshilmasdan, ba'zan bir necha marta takrorlab ko'rsatishlari lozim. Bolani mehnatga o'rgatishda oya-onalar uni hurmat qilmog'i lozim. Bolaning qilgan nojoya ishi ustidan kulmasdan, uni masxara qilmasdan jerkib bermasdan, aksincha, uning mehnatiga kichkinagina bo'lsa ham muvaffaqiyat tilash kerak. Shu bilan birga, ota-onalar birorta ish qilayotganlarida bolalariga tez-tez muraat qilib ularni kuchiga yarasha topshiriq berib turishlari "menga yordam ber" deb murojaat qilishlari yaxshi natija beradi. Bolalar o'zlariga nisbatan qilingan mana shunday murojaatni jon-u dili bilan bajaradilar. Masalan, 4 yosh bola o'zining o'yinchoqlari turgan burchaklarini o'zi yig'ishtira oladi. Maktabgacha yoshdagi bolani o'ziga-o'zi xizmat qilishidan tashqari uy uchun foydali bo'lgan mehnatga ham o'rgatish kerak. Bola ota-onalar rahbarligida o'z yoshiga, kuchiga yarasha asta-sekin oddiy, yengil ammo, foydali mehnatni bajarishni o'rganadi. Bunda birinchi navbatda, oiladagi kattalar shaxsiy namunasining ahamiyati beqiyosdir. 2 yosh o'g'ilchasining uy mehnatida yordam berishini bilgan dadasi tashqaridan ko'rib, jo'rttaga hamma eshitsin deb, baland ovoz bilan o'choqqa olov yoqish uchun o'tin olib kelish kerakligini aytadi. Buni eshitgan o'g'li kattalarga imo- ishora bilan murojat qilib o'zi o'tirgan bolalar stulidanpastga tushirib qo'yishlarini iltimos qiladi va stuldan tushib katta qadamlar bilan tashqariga chiqib ketadi. U jiddiy tus bilan katta tarashani ko'tarib kelib,



o'choq oldiga qo'yadi va yengil nafas olib qo'lini qo'lga artadi, hammaga bir nazar tashlab chiqadi, kattalarning barakalla degan so'zini eshitsu ishini davom ettirishga ketadi. Bu bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini orttiradi, kuchiga kuch qo'shadi, uni ilhomlantiradi. Ba'zi bir mehnatsevar, serg'ayrat ota-onalar o'gli yoki qizi qo'lidan ish kelmaydigan no'noq, mehnatdan o'zini olib qochadigan, ishyoqmas bo'lib o'sayotganini ko'rib hayron bo'ladilar. Bu kimga o'xshadi ekan debajablanishadi. Holbuki, farzandining uquvsiz yoki yalqov bo'lishiga ota-ona ham sababchi bo'ladi. Hali bu yosh, suyagi qotgani yo'q. Ish bo'lsa qochib ketmas, katta bo'lganda qilar deb, uni avaylaydilar. Bu xunuk oqibatlariga olib kelishi tabiiydir. Bolani yoshligidan mehnatga o'rgatib borish muhimdir. Ba'zi ota-onalar bolalarga qaychi, bolg'a mix, igna ushlashni man qiladilar. Bunoto'g'ri. Hayot va kuzatishlar shunday xulosaga olib keldiki, bolalarga shu oddiy asboblarni bilan muomala qilish o'rgatilsa, ular kattalarning qilgan ishlariga qarab ham oddiy asboblarni to'g'ri ushlashni ulardan to'g'ri foydalanishni o'rganadilar. Kartoshka tozalaydigan maxsus pichoq bilan muomala qilish o'rgatilsa 5-6 yosh bola kattalarning iltimosiga ko'ra kartoshka sabzi artishi mumkin. Bolani mehnat qurollari bilan tanishtirishni asta -sekin darajama-daraja amalga oshirish mumkin. Bunda asboblardan qanday foydalanishni ko'rsatib tushuntirib berish lozim. Bola mehnatining samarasi va mahsuloti kattayoki kichik

bo'lishiga qaramasdan, hurmat qilinishi kerak. Bolani yosh xususiyatlarini e'tiborga olib ishni bajarish jarayonida tez-tez dalda berib turish kerak. Bola ishnisekin bajarsa uni shoshiltirmaslik, agarda ish bajarishda qo'pol harakatlar qilsa, unga ta'na qilmaslik kerak. Ba'zan shunday holatlarni ham uchratamizki, bolabironta ishni noma'qul qilsa, ayrim ota-onalar buni bolaga har doim eslatib uning ish bajara olmasligini ta'na qilib, kamsitib, bolani ishdan sovutadilar. Mehnat qilish jarayonida bolani zeriktirib qo'ymaslik uchun unga davomli ish bermaslik kerak. Shuning bilan birga, hamishabir-xilish topshirmasdan ishning vaqtini ishning vaqtini chegaralab uni xilma-xil qilib turish zarur. Aks holda bola ishdan bezor bo'ladi, va ish bolani zeriktiradi. Uyni bezatish uchun parvarish qilinadigan gullardan oleander(tolgul) ning barglari changini artishni topshirish bolani zeriktirib qo'yadi. Chunki, bu gulning barglari mayda va ko'p, agarda fikus gulining barglari changlarini artish topshirilsa, bu bolaga ma'qul tushadi. Chunki uning barglari katta va yapaloq. Bolaga topshirish mumkin bo'lgan ishlardan idishlarni yuvish uyni yig'ishtirish, uy oldidagi gulzorda ishlash, do'kondan non sotib olib kelishni ko'rsatish mumkin. Do'kondan hamisha birorta narsa (non, choy, qand, qatiq, gazeta, sovun, tish pastasi) olib kelishni topshirish bolaga foydalidir. Shunday qilganda bola javobgarlikni sezadi. O'rni bilan shu narsani ham qayd qilish kerakki, bolalarga tamaki, spirtli ichimliklar sotib olib kelishlarini topshirish mutloqo mumkin emas. Mehnat jarayonida ish o'ngidan kelishi, zerikarli bo'lmasligi, vaqtning tez o'tishini ta'minlash uchun ishga doir ashulalar aytishni bolaga o'rgatish yaxshi. Agar oilada bitta bola bo'lsa uni ham albatta mehnatga va ayniqsa jamoa bo'lib mehnat qilishga o'rgatish kerak. Buning uchun eng yaxshi vositalar: barcha oila azolari ish qilayotganda bolaga ham yoshiga yarasha vazifa topshirish yoki qo'shni bolalar bilan birlashib ishlashni tashkil qilishi zarur. **A.S Makarenkoning** ota-onalarga bergan maslahatlariga asoslanib, bolaga besh yoshgacha yaxshi tarbiya berish kerak. Chunki, bu vaqtda bolalar aniq fikrlaydilar, uning tashqi sezgi organlari nihoyatda taraqqiy etgan bo'ladi. Oiladagi kattalar ota-onalar bola uchun mo'tabar bo'lib, bola ularga taqlid qiladi, gap so'zlariga e'tibor beradi. Keyingi tarbiya oilada

berilgan dastlabki tarbiyaga asoslansa, maktabdagi tarbiyaviy ish oiladagi tarbiyaning tabiiy davomi bo'ladi. Xuddi shunday, bolaga mehnat tarbiyasini ham kichik yoshdanoq oilada bermoq kerak. Bolalarni mehnatga psixologik jihatdan tarbiyalash nazarda tutilganda, bu faqat mehnat malakalari bilan chegaralanib qolmasligi muhim. Asosiy maqsad, bolada har qanday mehnatga ham hurmatni tarbiyalashdan iborat hisoblanadi. Bolani mehnat qilishga o'rgatish, bu oddiy mexanik ish bo'lmasdan balki, asta sekin bolaga mehnatning mohiyatini, mehnat bu ijtimoiy hodisa ekanligini tushuntirishdan ham iboratdir. Boladan boshlagan ishini oxirigacha yetkazishni, uni o'lda-jo'lda qilmaslikni talab qilish muhimdir. Bu bolada iroda kuchini tarbiyalaydi. Agar bolada kichik yoshidan boshlab ishini bajarishda tirishqoqlik tarbiyalanmasa, u ishga kirishishdan oldin, ishini bajarish davomida ishini yoqtirmasdan, qiynalib bajaradi. Mehnat unga ma'qul tushmaydi. Ota-onalar bolalaridagi ishyoqmaslik kabi xususiyat bilan qiziqib ko'rsalar, uning sababini aniqlab olishlari qiyin emas. Erkin o'yindan majburiy mehnatga o'tish bolaning ichki dunyosida katta o'zgarish yasaydi, va uning tarqiyotida yangi davr ochadi. Chunki, o'yindagi tirishqoqlik bilan mehnatdagi tirishqoqlilik o'rtasida uning mazmunidan qat'iy nazar, farq bor. Endi faqat o'yindagina emas, balki mehnatda maqsadga erishish zarurdir. Mehnatda maqsadga erishishda tirishqoqlikka odatlanish sistemali ravishda mehnat qilish zo'r berib ishlay bilishning ahamiyati katta. Bola yoshligidan o'z kuchiga yarasha mehnat qilishga o'rgatilar ekan, mehnat qilish bolaning tinkasini quritmasdan, balki uning hamma vaqt mehnat faoliyatiga tayyor ekanligidan darak beradi. O'yindan mehnatga o'tish tayyorgarligiga ega bo'lmagan bolada esa qandaydir bir qarama-qarshilik paydo bo'ladi. Unda faoliyat ishtiyoqi yo'qligi bilan birga mehnat qilishdagi zo'r berishga nafrat tuyg'usi ham bor. Agar mana shu qarama qarshiliklar o'z vaqtida bartaraf qilinmasa bola erinchoq bo'lib qoladiva umuman bolaning faolligi pasayishi mumkin. Mehnat qilishga o'rgangan bolaning holati esa boshqacharoqdir, u hamisha mehnatqilishga tayyor. Mehnatdagi muvaffaqiyatning uning kayfiyatini ham o'zgartiradi: bola qanoat hosil qiladi, unda o'z kuchuuga ishonch paydo bo'ladi va g'ayratiga g'ayrat qo'shiladi. Mehnat qilishga odatlanish

tarbiyalanmasa, bolada har qanday mehnatga nafrat bilan qarash, kishi mehnatidan foydalanish kabi yomon odatlar tarbiyalanadi. Tajriba yana shuni ko'rsatadiki, ishyoqmas, yalqov bolalarga nisbatan mehnatsevar bolalar axloqiy jihatdan ham yuksakroqdir. Shu sababli ham, mehnat axloq tarbiyasining asosi hisoblanadi. Mehnat qilishni tushuntirish va ishontirish bilan birga qo'shib olib borilgan vaqtdagina, bolalarda yuksak axloqiy sifatlar tarbiyalanadi.

1.3 Maktabgacha ta'lim muassasalarida mehnat tarbiyasining shakllari

Maktabgacha ta'lim muassasalarida mehnat tarbiyasining shakllari bir necha tur bo'lib, bular – topshiriqni bajarish, navbatchilik, individual mehnat, jamoaviy mehnat, qo'l mehnatga doir mashg'ulotlardir. Topshiriq – maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarmehnatni tashkil etishning boshlang'ich shakli hisoblanib, barcha



yosh
guruhlarida
qo'llash
imkoniyatini
beradi. Ilk va
kichik yosh
guruhlarida
bolalarga
uncha

murakkab bo'lmagan va qisqa muddatli topshiriqlar beriladi. O'yinchoqni, kitobni, stulni olib kel! Joyiga olib borib qo'y. Tushki ovqat uchun stol ustiga qoshiqlarni qo'yib chiq! O'rta va katta guruhdagi bolalarga beriladigan topshiriqlar ancha murakkab bo'lib, ular endi xonadan tashqarida bajarishga mo'ljallangan va ma'lum bir kishiga murojaat qilish bilan bog'langandir. Shuningdek, topshiriqlar (o'yinchoqlarni yig'ishtirish, gullarga suv quyish, to'kilgan barglarni tegishli joyga olib borib tashlash) ikki uch boladan tashkil topgan kichik guruhlar tomonidan bajarilishi mumkin. Maktabga tayyorlov guruhida beriladigan topshiriqlar yana ham murakkablashadi. Bunday topshiriqlar boladan alohida ma'suliyatni va boshqalarga g'amxo'rlik bilan munosabatda bo'lishni tarkib toptirish bilan bog'liq bo'ladi: kichik guruh bolalarini sayrga chiqishdan oldin, enagauyqudan keyin kiyinishga yordam berishi, ularning stoliga tushlik ovqatga tayyorlab berishi, toza sochiqlarni osishi, toza choyshablarni olib kelishga yordamlashishi hamda boshqalar kiradi.

Navbatchilik—jamoat uchun mo'ljallangan mehnat faoliyatining shakli bo'lib, u majburiy tartibda bajariladi. Bolalarning navbatchiligi kichik guruhda yil oxiridan boshlanadi. Barcha bolalarning mehnatda doimiy ishtirok etishlarini ta'minlash uchun navbatchilikning xilma-xil turlari uyushtiriladi: oshxonada (hamma yosh guruhlarida), mashg'ulotga tayyorlanishda (o'rta guruhlardan boshlab), o'simlik va hayvonlarni parvarish qilishda (katta va maktabga tayyorlov guruhlarida). Kichik guruhbolalari oshxonada navbatchilik qiladilar. Birdaniga 4-5 bola navbatchilik qilishlari mumkin, har bir bola 1-2 stolni bezatadi. Katta va tayyorlov guruhlarida bolalarning vazifalari kengayadi. Nonushta va tushlik ovqatiga kech tushki va kechki ovqatga dasturxon tuzatish ovqatlanib bo'lingandan so'ng idish tavoqni ovqat tarqatiladigan stolga yig'ishtirish, stollar ustini yig'ishtirib olish, enagaga choy idishlarini yuvishda yordam berish shular jumlasidandir. Bu yoshdagi bolalar ikki nafardan navbatchilik qilishadi, ammo, har bir bolaning ish hajmlari ortadi. Mashg'ulotga tayyorgarlik bo'yicha navbatchilik o'rta guruhda bolalar oshxonada navbatchilik qilishni bilib olganlaridan so'ng kiritiladi. Bu navbatchilar stol va stullarni, mashg'ulotga kerakli materiallarni, qo'llanmalarni mashg'ulotga tayyorlaydilar va xonani tartibga keltiradilar. Katta guruhdan boshlab bolalar tabiat burchagida navbatchilik qila boshlaydilar. Navbatchilikning bu turi ham ta'limiy ham tarbiyaviy ahamiyatga ega. Navbatchilikning bu turida ham bolalar ikkitadan tayinlanadi: biri o'simliklarni parvarish qilsa, ikkinchisi jonvorlarga qaraydi. Ulardan qaysi biri bo'sh qolsa ikkinchisiga yordam beradilar. Navbatchilik kundalik mehnatning bir turi sifatida ham bolalar mehnat mashg'ulotlarida tegishli mehnat jarayonlarini bajarishni bilib olganlaridan so'ng joriy etiladi. Bu vaqtda bolalarning mustaqil mehnat faoliyati takomillashadi. Navbatchining ishi kattalarga yordam berishga, bolalar ehtiyojini qondirishga qaratilgan bo'ladi. Navbatchilik paytida bolalarda topshirilgan ish uchun ma'suliyat, mehnat vazifalarini bajara olish odati tarkib topadi. Mehnat bolalarga quvonch bag'ishlaydigan qilib rejalashtirilishi, u ma'lum izchillik bilan amalga oshirilib borishi, vaqi bolalar yoshiga qarab to'g'ri belgilanishi kerak: kichik yoshli bolalar uchun **10-12** daqiqa, katta guruh bolalari uchun **15-20** daqiqa mehnat qilishi

ma'qul hisoblanadi. Oshxonada navbatchilik o'rta guruhda yil boshidan, mashg'ulotlarda navbatchilik o'rta guruhda yilning ikkinchi yarmidan, tabiat burchagidagi navbatchilik katta guruhlarda joriy etiladi. Bolalarning mehnat tarbiyasini tashkil etish shakllaridan yana biri, qo'l mehnati bo'yicha mashg'ulotdir. Bilim va malaka birinchi marta berilayotgan bo'lsa va u tushuntirish hamda barcha bolalarga yaqqol ko'rgazmali qilib ko'rsatishni talab etgan hollarda yana shunday mashg'ulotlar o'tkaziladi. Bolalarni mehnat tarbiyasini tashkil etishning topshiriq navbatchilik kabilarga qaraganda yana bir nisbatan murakkab shakli-bolalarning umumiy birgalikdagi, jamoaviy mehnatini tashkil etishdir. Umumiy, birgalikdagi ayniqsa jamoaviy mehnat bolalarda o'z harakatlarining boshqalarniki bilan uyg'unlashtirish bir-biriga yordam berishni tarkib toptirish uchun ijobiy shart- sharoit yaratadi. Ishni bir xil suratda bajarishni ta'minlaydi. Umumiy, birgalikdagi jamoaviy mehnat bolalar faoliyatining ijtimoiy yo'naltirilgan maqsadini birlashtiradi. Bunday mehnat natijasi hamma uchun foydali bo'lishi bilan tavsiflanadi. Xonani MTM maydonchasini tartibga keltirish, guruh xonasini bayramga bezatish kabilar bolalarning hammasini mehnat jarayonida ishtirok etishlarini talab etadi. Umumiy mehnat qo'yilgan maqsad bilan bog'liqlikda bolalarning mehnat faoliyatini tashkil etishda har bir bola ishning ma'lum bir qismini bajarishlariga asoslaniladi. Masalan: tarbiyachi bolalardan guruh xonasini tartibga keltirishni so'raydi va ularga topshiriqlarni taqsimlab beradi: Alisher va Elyor qurilish materiallarini qutiga joylaydi; Shaxnoza va Maftuna qo'g'irchoqqa tozakiyimlarni kiydiradi; Biz Sora va Behruz bilan

birgalikda stolni ustini tozalaymiz. Birgalikdagi mehnat bolalarning bir xil surat va sifatdagi o'zaro harakatini talab etadi. Bunday mehnat turini tashkil etishda bolalarni alohida zvenolarga birlashtirish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, har bir zvenoga berilgan topshiriqlar ham bolalar o'rtasida taqsimlanadi: bolalardan biri o'yinchoqlarni javondan olib polga qo'yadi, boshqasi javonni changdan tozzalaydi, uchinchi esa o'yinchoqlarni qaytadan javonga tanlaydi. Jamoaviy mehnat bolalarda mehnatga doir topshiriqni hamda ahloqiy vazifalarni hal etishga imkon beradi: mehnatga doir topshiriqni taqsimlash tasodifiy zaruriyat bilan bog'liqlikda bir-birlariga yordam beradi, umumiy birgalikdagi ishning sifati uchun intilishadi. Bolalar mehnat faoliyating jamoaviy shakli jamoaviy o'zaro munosabatlarni maqsadga yo'naltirilgan tarzda tarbiyalshga imkon beradi. Har qanday umumiy yoki birgalikdagi mehnat jamoaviy tavsifga ega bo'lmasligi mumkin, biroq har qanday jamoaviy umumiy va birgalikdagi mehnatni o'zida aks ettiradi. tozza kiyimlarni kiydiradi; Biz Sora va Behruz bilan birgalikda stolni



ustini tozalaymiz.

Birgalikdagi mehnat bolalarning bir xil surat va sifatdagi o'zaro harakatini talab etadi. Bunday mehnat turini tashkil etishda bolalarni alohida zvenolarga birlashtirish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek har bir zvenoga berilgan topshiriqlar ham bolalar o'rtasida taqsimlanadi: bolalardan biri o'yinchoqlarni javondan olb polga qo'yadi, boshqasi javonni changdan tozzalaydi, uchinchi esa o'yinchoqlarni qaytadan javonga taxlaydi. Jamoaviy mehnat bolalarda mehnatga

doir topshiriqni hamda axloqiy vazifalarni hal etishga imkon beradi: mehnatga doir topshiriqni taqsimlash tasodifiy zaruriyat bilan bog'liqlikda bir-birlariga yordam beradi, umumiy birgalikdagi ishning sifati uchun intilishadi. Bolalar mehnat faoliyatining jamoaviy shakli jamoaviy o'zaro munosabatlarni maqsadga yo'naltirilgan tarzda tarbiyalashga imkon beradi. Har qanday umumiy yoki birgalikdagi mehnat jamoaviy tavsifga ega bo'lmasligi mumkin, biroq har qanday jamoaviy umumiy va birgalikdagi mehnatni o'zida aks ettiradi. Bolalarning jamoa bo'lib mehnat qilishi maktabgacha yoshdayoq kuzatiladi. Jamoa mehnatiga quydagilar xosdir: umumiy maqsad, ishlovchilar o'rtasida mehnat taqsimoti, mehnatning jamoa natijasi, mehnat ishtirokchilarining umumiy ma'suliyati, ularning bir-biriga bog'liqligi. Jamoa mehnatining eng oddiy turi umumiy mehnat bo'lib u bolalarni ikki jihatdan birlashtirish bilan ajralib turadi, u ham bo'lsa umumiy maqsad va mehnatning umumiy natijasidir. Mehnat jarayoni xuddi yakka tartibdagi kabi kechadi. Masalan, har bir bola bir tup o'simlik barglarini artadi, umumiy yakunda esa hamma o'simliklar toza bo'ladi. Natijalarini yagona mehnat natijasi qilib umumlashtirish har kimga o'zining ishi jamoa qilgan ishga bog'liqligini tushunish imkaniyatini beradi. Biroq bolalar tegishli mehnat jarayonini o'rganib olganlaridan keyin umumiy mehnatni joriy qilish mumkin. Umumiy mehnat tarbiyachining umumiy maqsadni qo'yishdan umumiy ish hajmini belgilashidan, nima uchun mehnat bolalar guruhi tomonidan bajarilishi mumkinligini tushuntirishdan boshlanadi. "Bizning ishimiz ko'p, qo'g'irchoqning hamma idishlarini yuvishlarimiz kerak. Har kim bittadan buyumni yuvsa hamma idishlar toza bo'ladi" deydi. So'ngra bolalar o'z ish o'rinlarini mustaqil tashkilotadilar: zarur mehnat jihozlarini tanlab oladilar, ularni qulay qilib joylashtiradilar. Shundan keyin, mehnatga kirishish uchun ruhsat so'raydilar. Mehnat jarayonida tarbiyachi bolalarning ishini nazorat qiladi, qo'shni jamoadagilar diqqatini natijaning sifatiga qaratadi. Agar kerak bo'lsa ulardan maslahat so'raydi. Mehnatni tez uddalagan bolalarga ya'nabitta buyumni yuvishni tashkil etish mumkin. Bolalarni mehnat faoliyatini tashkil etish shakllariga doir rejalashtirish ma'quldir. Mehnatni tashkil etish sifatida barcha guruhlarda

topshiriqdan foydalaniladi. O'z mazmuniga ko'ra topshiriqlar turlichabo'lishi mumkin. Tarbiyachining ish rejasida yangi topshiriq mazmunini qayd etish, so'ngra uni bajarishga jalb etiladigan bolalar ismlarini ko'rsatish maqsadga muvofiqdir. Bu tarbiyachiga mazkur topshiriq bilan barcha tarbiyalanuvchilarni qamrab olish va ularni kerakli mehnat topshiriqlarni bajarishga o'rgatish, barcha bolalarning qo'lidan keladigan bo'lib borishiga ko'ra tarbiyachi o'zining alohida e'tiboriga muhtoj bo'lgan bolalarning ismlarinigina ko'rsatib beradi. Bolalar navbatchiligiga rahbarlikni rejalashtirar ekan, tarbiyachi mehnat hajmi va mazmunini, o'zi bolalarga navbatchilarningvazifalarini tanishtirishda foydalanadigan jihoz, metod va usullarni ko'rsatadi. Ketinchalik navbatchilikka rahbarlik rejada mehnat mazmuni murakkablashgan, navbatchilikka jalb qilinayotgan bolalar tarbiyachining alohida e'tiboriga muhtoj bo'lgan hollarda ko'rsatiladi. Vaqti-vaqtida navbatchilik bolalarning birlaridan ikkinchilariga topshirilayotgan vaqtda (katta guruhda) bolalar bilan suhbat rejalashtiriladi. Rejada bolalarning jamoat shaklidagi mehnatlarini tashkil qilish mazmuni va tarkibi o'tkazish vaqti ko'rsatiladi. Zarur jihozlar belgilanadi va joylashtiriladi. Navro'z va mustaqillik bayramlaridan avval uyushtiriladigan umumiy xalq hasharlari, bayramlari maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarda vatanga muhabbat ularga xalqning jangovor va mehnat an'analarini tanishtirish maqsadlarida nishonlanadi. Bayramlar tarbiyaning muhim vositasi sifatida puxta rejalashtirilishi lozim. Rejada muassasaning butun jamoasi, shu jumladan bolalarning ham tayyorgarliklari aks ettiriladi. Tarbiyachining joriy rejasida bolalarga u yoki bu bayram "yoki mashhur sana" ning ahamiyati haqida hikaya qilinadigan, bolalar kattayoshlilarning bayramga tayyorgarliklari bilan tanishish imkoniga ega bo'ladigan sayr-tomoshalar o'tkaziladigan turli mashg'ulotlar nazarda tutiladi. Bolalarni bayram ertaliklarida qatnashishga tayyorlash: she'rlar, qo'shiqlar aytish, raqsga tushish, libos va boshqa atributlarni tikishi hamrejalashtiriladi. Pedagogik kengashdabayram dasturi ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi, bolalarni bayramga tayyorlash jarayonida ham, bayramni o'tkazish kunida ham uyushtirish shakllari o'ylab chiqiladi va puxta rejalashtiriladi. Umum

xalq bayramlariga bag'ishlangan ertaliklardan tashqari tarbiyachi bolalar bilan maishiy bayramlar va turli ko'ngil ochishlar: yangi yil bayrami bolalarni maktabga chiqarish, bir oyda tug'ilgan bolalarning tug'ilgan kunlarini bir kunda nishonlash, shuningdek, qo'g'irchoq, soya teatrini, ko'ngil ochadigan videofilm, kinofilmlar, oynayi- jahon ko'rsatuvlarini ko'rsatish va shu kabilarni o'tkazishni rejalashtiradi. Maktabgacha ta'lim muassasalari ota-onalar o'rtasida ishlashni rejalashtirish pedagogik targ'ibotini amalga oshirish rejalashtiriladi. Ularning oila va MTM ning bolalarga ta'sir ko'rsatishda hamkorlikni yo'lga qo'yish maqsadlarida ta'lim tarbiyaviy ish mazmuni bilan tanishtiradi, bolalarni oilada tarbiyalashning ilg'or tajribasini o'rganadi, umumlashtiradi va tarqatadi. Bu ish uzluksiz tarzda amalga oshiriladi, va MTM mudirasi tomonidan ham (yillik rejada) har bir guruh tarbiyachisi tomonidan ham rejalashtiriladi. Ishni tashkil etish usullari va ularni mazmuni quydagilarni: ota-onalar majlislarini, maslahatlarini o'tkazishni, bola oilasiga borishni, ochiq eshiklar kunini, mashg'ulotlar o'tkazishni, bolalar ishlari ko'rgazmalarini tashkil etishni, ota-onalar burchaklarini yangilash va shu kabilarni nazarda tutadi. Shunday qilib mehnat shaxsning ma'naviy ahloqiy, jismoniy va aqliy jihatdan kamolatga erishishning muhim shartidir. Shu sababli MTM da mehnat tarbiyachisini samarali tashkil etishga e'tibor qaratiladi. Mehnat tarbiyachisi yordamida bolalarga mehnatning mohiyati anglatiladi, ularda mehnatga ongli munosabat, muyyan ijtimoiy harakat ko'nikma, malakalari shakllantiriladi. Tarbiyalanuvchilarda dastlabki mehnat ko'nikmalarining shakllantirilishi uzluksiz ta'limning keying bosqichlari va oilada murakkab ko'nikma, malakalarga egalikni taqozo etuvchi mehnat faoliyatini izchil tashkil etish orqali kasbiy faoliyatga samarali tayyorlash imkoniyatini yaratadi. Bolalarni mehnat tarbiyasini tashkil etish shakllaridan yana biri qo'l mehnati bo'yicha mashg'ulotdir. Bilim va malaka birinchi marta berilayotgan bo'lsa va tushuntirish hamda barchabolalarga yaqqol, ko'rgazmali qilib ko'rsatishni talab etgan hollarda ana shunday mashg'ulotlar o'tkaziladi. Bolalarning mehnat tarbiyasini jamoa mehnati dastlabki jamoachilik asoslarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Jamoa mehnatiga birgalikda harakat qilish, o'zaro yordam, shu bilan birga mehnat

taqsimoti ham mujassamlashgan bo'ladi. Bunda mehnat yutuqlaridan birgalikda quvonadilar, ish yaxshi chiqmasa birga qayg' uradilar. Mehnatda bolalarning birlashishlari tarbiyaviy vazifaga qarab xar-hil shaklda bo'ladi. Yonma-yon mehnatda hamma bolalar bitta ishni bajaradilar, ammo har bittasi o'sha umumiy ishni bir qismini bajaradi, (bittasi moyqalamlarni yig'ishtiradi, boshqasi bo'yoqlarni). Ishning bunday tashkil etilishi bolalarni mehnat malakalariga o'rgatishda ham uylarning ishini nazorat qilib turishda ham o'ng'aylik tug'diradi. Umumiy mehnatda har-bir bola o'z ishini bajaradi, ammo oxirida hamma qatnashuvchilar mehnati umumlashtiriladi (har-bir bola xamirdan uzib olib pecheni yasaydi va u bitta idishga solib bolalar mehmon qilinadi). Yoki hamma bolalar guruh xonasini yig'ishtirishadi, har bir bola biron ishni bajaradi, yig'ishtirib bo'lingach natija bitta qilib yakunlanadi. (hamma yaxshi ishladi, shuning uchun guruh xonasi toza, saranjom- sarishta chiroylik bo'lib qoldi). Birgalikdahi mehnat quydagicha tashkil etilishi mumkin: masalan, xonani yig'ishtirishda bolalarning bittasi o'yinchoqlarni yuvadi, ikkinchisi artadi, uchinchisi o'yinchoq tokchasini tozalaydi va unaga o'yinchoqlarni teradi. Yoki tabiatdagi mehnatda bittasi tuvaklarga qum va tuproqlarni soladi, ikkinchisi urug' yoki ko'chatni o'tkazadi, uchinchisi joyiga olib borib qo'yadi. Bu yerda bolalarning ish harakatida o'zaro mutanosib bo'lishi, ya'ni har bir bola bir xilda chaqqonlik bilan harakat qilishi kerak, buning natijasida ma'lum mehnat munosabatlari yuzaga keladi. Bunday vaziyatda tarbiyachining bolalar o'rtasida to'g'ri munosabat o'rnatishga qaratilgan bevosita rahbarligi zarur. Bunday rahbarlik ma'lum izchillikda amalga oshiriladi. Tarbiyachi bolalarga bir necha kishilar birgalikda biron ishni bajarayotganliklarini, ularning ishi bir-biriga bevosita bog'liqligini, ulardan har biri umumiy ishning biror qismini bajarayotganini, ish qanday izchillik bilan amalga oshirilayotganini tushuntiradi. (buning uchun tushuntirish hikoya qilib berish, bolalar badiiy adabiyotidan foydalaniladi). Bolalarning kichkina guruhi bilan ularning birgalikdagi mehnatini tashkil etish. Bunday mehnat ertalab, sayr peytlarida tashkil etiladi. Bolalarning mehnattarbiyachisi mehnat faoliyatini rejalashtirganda tarbiyachi uni mehnat jarayonida amalga oshiriladigan tarbiyaviy vazifalarga ko'ra

belgilaydi. Bolalar bog'chasida mehnat tarbiyasining shart-sharoitlari. Bolalar mehnat tarbiyasining vazifasi va mazmunini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun joy va vaqt gigienik shart- sharoit yaratilmog'i lozim. Ozodalik, toza havo, kerakli darajadagi yorug'lik, mehnatni bolalarimkoniyatiga muvofiq bo'lishi, mehnat vaqtini bolalar yoshiga qarab to'g'ri belgilash (kichik yoshli bolalar uchun 10-12 daqiqa, katta guruh bolalar uchun 15-20 daqiqa), bolalar harakatlarini almashtirib turishni ham e'tiborga olish kerak. Mehnat bolalarga quvonch bag'ishlaydigan qilib rejalashtirilishi lozim. U ma'lum izchillik bilan amalga oshirilib borishi kerak. Mehnat qilishlari uchun hamma bolalarga yetarli miqdorda kerakli qurollar, asboblari bo'lishi, ular bolalarning yoshiga imkoniyatiga mos kelishi, o'zlari mustaqil foydalanadigan qilib joylashtirilishi kerak. Navbatchilar uchun fartuklar zarur, qalpoqcha, qo'lqopcha, idish yuvish uchun klyonkadan fartuklar kerak. Ovqat tayyorlash uchun kichikroq pichoqlar, tarelkalar, o'qlovchalar, hamir qorish uchun tog'arachalar shaklchalar kerak bo'ladi. Xonani tozalash uchun toza latta, kichikroq tog'aracha, stoldan uvoqlarni yig'ib olish, polni supurish uchun shotkalar, axlatni yig'ib olish uchun hokandozlar kerak. Bolalarga to'g'ri mehnat tarbiyasi berishda kattalarning bir-biri bilan o'zaro munosabat bilan hamkorlikda ishlashlari ijobiy natija beradi.

I-BOB. XULOSA

Maktabgacha yoshdagi bolalarga mehnat tarbiyasini berish qanchalik erta boshlansa samarasi shuncha erta namoyon bo'ladi va bolaning butun hayotiga ijobiy tasir qiladi. Har-bir bola shaxsini yosh bosqichiga mos ravishda sifatli rivojlantirish va ularni maktab ta'limiga barkamol qilib tarbiyalashda mehnat tarbiyasining o'rni kattadir. Xulosa o'rnida shuni takidlash kerakki, bolalarga mehnat tarbiyasini singdirishda ota-onalar va tarbiyachilardan katta sabr va matonat talabqilinadi. to'g'ri' yo'lda berib borilgan mehnat tarbiyasi natijasida bola mustaqil ish yuritishga va katta hayotga dadilqadam qo'yishga hozirlik ko'radi. Maktabgacha yoshdagi bolalar mehnat tarbiyasi orqali qolgan barcha, axloqiy aqliy, iqtisodiy tarbiyani o'zida mujassamlaydi. Chunki, mehnat tarbiyasi barcha tarbiyalarning negizidir. Bunda bolalarda o'zaro hurmat hissi, mehribonlik, jamoa bo'lib ishlash kabi xislatlar rivojlanadi. Mehnat tarbiyasi bolalarda yana o'z oldiga qo'ygan maqsadni amalga oshirishga, mustaqil fikrlashga, kattalar mehnatini qadrlashga o'rgatadi. Mehnat tarbiyasini olishda bolalar jismonan sog'lom va baquvat bo'lib ulg'ayadilar. Bolalarga mehnat tarbiyasini berishda zamonaviy metodlar yaratish lozim, hamda shu metodlardan foydalanib bolalarni tarbiyalash muhim hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida pedagog kadrlarni tayyorlash tizimini zamon talablari darajasida qayta tashkil etish maqsadida ta'limning xalqaro andozalaridan samarali foydalanish ahamiyat kasb etmoqda. Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarning rivojlanishida birinchi vazifani tarbiyachiga qo'yilgan talablarga qanchalik muvofiq ekanligi belgilab beradi. Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisi avvalo, bolalarni kelajak taqdiri uchun yuqori ma'suliyatni to'la anglab yetgan bo'lishi zarur.

Mehnat tarbiyasi bolalarni mehnatga psixologik va amaliy jihatdan tayyorlab boradi. Bolalarga mehnat qilishni tushuntirish va uni kuchli ekanligiga ishonitirish bilan birga qo'shib olib borilgandagina bolalarda yuksak sifat tarbiyalanadi.

II-BOB.MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA MEHNAT TARBIYASINING MAZMUNI

2.1 Bog'cha yoshidagibolalarni kattalar mehnatiga munosabatini shakllantirish yo'llari

Yosh avlodgamehnat tarbiyasi berish masalasi hozirgi davrda eng dolzarb mavzu hisoblanadi. Mehnat har bir kishi kamolotida va umuman jamiyat taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Bog'cha yoshidagi bolalarni jismoniy,aqliy,ahloqiy ba estetik tomondan tarbiyalashda mehnat tarbiyasi mehimi ahamiyatga egadir. Mehnat har bir yosh guruhidagi bolalarningo'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olib tashkil etiladi, unga to'g'ri rahbarlik qilingandagina yetarli natijaga erishish mumkin. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar mehnatni o'ziga xos tomonlari ko'pgina olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy ishlarda keng o'rganib chiqilgan. Bolalar mehnatining muhim belgisi uning ma'lum maqsadga qaratilganligidir.Kichik bog'cha yoshidagi bolalarning mehnatibiror jarayonga oid

harakat bo'lib, u faqat kattalarning rahbarligi natijasidagina amalga oshirilishi



mumkin. Bola kubiklarni bir joydan ikkinchi joyga, mashinadan stolga, stoldan-mashinaga ko'chiradi va hakoza. Tarbiyachi boshqa stol ustidagi kubiklarni ko'rsatib, uni mashinada ortib olib borish kerakligini aytadi. Bola kubiklarni mashinasida shkafga tashiy boshlaydi va

joyiga tartibli qilib joylab qo'ya boshlaydi. Qatnov bir necha marta takrorlanib barcha kubiklar joyiga yig'ishtirib qo'yiladi. Bolalar faoliyatida maqsad paydo bo'ladi. Keying galda bolaning o'zi o'yanayotgan o'rtoqlariga o'ynab bo'lgandan keyin o'yinchoqlari mashinada joyiga olib borib qo'yishni aytadi. Katta guruh bolalarda mustaqil maqsad qo'yish qobiliyati moddiy samara beradigan mehnat turlarini muvaffaqiyatli rivojlanadi: gulzorda, ekinzorda ishlash, o'yinchoqlar yasash va bashqalar. Faoliyatni rejalashtirish mehnat tarbiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bolalarni kuzatish ular faoliyatini tartibsiz, rejasiz ekanini ko'rsatadi. Bolalar bundayharakatlar orqali biror natijaga erishish uchun juda ko'p vaqt va kuch sarflaydilar. Shu bilan bir vaqtda o'z ishlaridan o'zlari qoniqmaydilar. Tarbiyachi bolalarni o'z faoliyatlarini tahminiy rejalashtirib olishlariga o'rgatish va ular faoliyatiga rahbarlik qilish lozim. Shunday qilib, butun bog'cha yoshi davrida mehnat va o'yin o'zaro bog'liq holda kechadi, biroq har qanday holda ham bolalar mehnatini o'yinga aylantirish, ularni farqini ishlab chiqarish noto'g'ri bo'lat edi. Tarbiyachilar va ota onalar tasirida asta-sekin bolalar mehnati o'z vazifasi, mazmuni,metodi va tashkil etilishi bilan mustaqil faoliyati sifatida ajratib boriladi. Mehnatda uning beradigan samarasi faoliyatning majburiy, tarkibiy qismi hisoblanadi. Ammo bolalar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishda mehnat natijasiga bolalarda mehnatga havas hissini tarbiyalash uchun yordam beradigan pedagogik omil deb qarash kerak.Mehnatda natijaga erishishda, mehnat malakalarini shakllantirishda pedagogning va bolalar o'rtoqlarining bahosi va o'ziga o'zi baho berish katta ahamiyatga ega. Bolalar yasagan buyumlari o'yin va

mashg'ulotlarda qo'llanilsa, ular o'zlari yasayotgan buyumlar yanada sifatli bo'lishga intiladilar. Maktabgacha ta'lim yoshi davrida bolalarning yoshi ulg'ayishi bilan mehnat sabablari ham o'zgarib boradi. Mutaxassislarning olib borgan ilmiy izlanishlari natijasi shuni ko'rsatadiki, bolalarni kattalar mehnati bilan tanishtirish orqali ular kattalardan mehnatning ijtimoiy sababini ancha erta o'zlashtirib olar ekanlar. Lekin ular biron ishni mustaqil bajarganlaridagina o'z mehnatlari boshqalar uchun foydali ekanligini ongli ravishdabilib oladilar. Masalan: onalar va buvilar uchun 8-martga sovg'a tayyorlash, kichik guruh bolalar maydonchasini yig'ishtirishga yordamlashish, yirtilgan kitoblarni yamab berish, konsert va teatr qo'yib berish bolalardagi mehnatning muayyan natijasiga intilish uyg'otadi, faoliyatni ijtimoiy sabablarini anglatib, mehnatga havasini, ishni bajarishda bolalarning o'z oldilariga qo'yadigan talablarini oshiradi. **V. I. Loginovaning**olib borgan ilmiy-tadqiqot ishlarida takidlanishicha, bolalarga mehnat tarbiyasi berish uchun ular mehnat va mehnat malakalari to'g'risidagi bilimlar sistemasini o'zlashtirib olishlari kerak ekan:

1.Mehnat maqsad qo'yish va uning natijasini belgilab olishdan boshlanadi:

Maqsad-mehnat tasviri.

2.Mehnat qilishdan ko'zlangan maqsad bo'yicha kerakli materiallarni tanlab ajratib olish.

3.Materialni ishlash uchun kerakli asboblarni tanlab ajratib olish.

4.Natijaga erishish uchun mehnat harakatlarini bajarish.

Bu sistemani quydagicha keltirish mumkin: maqsad, mehnatni tanlash, materialni tanlash, mehnat faoliyati, mehnat quroli, mehnat natijasi.

Shunday qilib, maktabgacha yosh davrida mehnat faliyati shakllantiriladi. Pedagog rahbarligida ijtimoiy sabablarini hamma muhim tomonlari shakllanadi.

Maktabgacha ta'lim yoshi davrining o'ziga xos tomonlaridan yana biri, bolalar mehnatining o'yin bilan bog'liqligidir. O'yin jarayonidagi bironbir harakat doimo biron mehnat jarayonini aks ettirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Ikkinchi tomondan

mehnat jarayonini bajarishda uni o'yin shakliga aylantirishadi, masalan, barglarni zambillarda tashishadi mashinalarda yurishadi. Shu bilan birga, o'zining xususiyati, mazmuni, yuzaga kelish sababiga ko'ra, mehnat va o'yin bir biridan farq qiladi. Mehnatda maqsad qo'yiladi, uni amalga oshirish, natijasiga erishish uchun shart-sharoit yaratiladi, vositalar izlab topiladi. O'yinda esa bolalarning kattalar mehnat faoliyatiga taqlid qilinadi. O'yinda mehnat singari biror aniq natijaga erishilmaydi, ammo mehnat kabi bolalarga quvonch bag'ishlaydi, ular o'zlarida qoniqish hissini sezadilar. O'yinda bola o'z o'ylaganini rivojlantirishi yetakchi rol o'ynaydi, mehnatda esa natijaga erishish yo'lidagi mehnat harakatlari, o'yin o'zining rivojlanishidagi har qanday bosqichda to'xtatilishi mumkin, mehnatda esa, albatta, ko'zlangan natijaga erishiladi. Bolalarning mehnatfaoliyati qachon va qanday qilib o'yindan ajratiladi? Kichik bog'cha yoshidagi bolalar mehnatining asosiy turi o'z-o'ziga xizmatdir. Bu kichik bolalar uchun ancha mashaqqatli ish. Shuning uchun, bu yoshdagi bolalarni mehnatning bu turiga o'rgatishda ko'pincha o'yin vaziyatlaridan foydalaniladi. Avvaliga bolalar o'yin obrazi orqali mehnatga o'rgatiladi. Shu orqali bolalar ishonch bilan harakat qilishni o'rganadilar. Sekin-asta o'-o'ziga xizmat qilish malaka va ko'nikmalari shakllana boradi.

Bolalarni kattalar mehnati bilan tanishtirish ta'lim tarbiyaviy ishning mazmuni maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarni kattalar mehnati bilan tanishtirish orqali ularga kattalarning mehnati ijtimoiy-foydali mehnat bo'lib narsa va buyumlarni yaratishga qaratilganligi, ular har bir kishi va butun xalq uchun zarur ekanligi to'g'risida tushuncha berib boriladi. Kattalarning mehnati bilan tanishtirish yana quyidagi maqsadni ko'zlab ham amalga oshiriladi: kattalar mehnati to'g'risida aniq bilim va tasavvurlar berish, mehnatni va mehnat natijalarini qadrlashga o'rgatish, mehnatga qiziqish va mehabbat uyg'otish, mehnat qilish xohishini tarbiyalash va ishni sifatli bajarishga o'rgatish. Kattalar mehnati bilan tanishtirishning asosiy mazmuni quydagilardan iborat:

- Har bir kishi mehnatning ijtimoiy mohiyati.

- Mehnat ahli o'rtasidagi ijobiy o'zaro yordam berish munosabati.
- Har qanday kasb ham muhim ekanligini tushuntirish.

Mehnat faoliyatining asosiy tarkibiy qismlari bilan tanishtirish: 1. Mehnatning maqsadi, uning ijtimoiy ahamiyati; 2. Materiallarni tanlash (mehnat materiallari); 3. Jihozlash (mehnat faoliyati uchun zarur bo'lgan asboblarni tayyorlab olish);



4. Mehnat jarayoni (maqsadga erishish uchun bajariladigan mehnat harakatlari); 5. Natija- mehnatmahsuli.

MTM dasturiga binoan har bir yosh guruhidagi bolalar kattalar mehnati to'g'risida

quydagi bilim va tasavvurlarni egallay olishlari lozim.

Kichik guruh:

Ayrim kasb egalarining mehnat jarayoni.

Mehnat jarayonidagi mehnat harakatlari.

Mehnat jarayonini amalga oshirish uchun kerakli materiallar.

Ma'lum bir mehnat jarayonini bajarish uchun jihozlar.

Mehnat natijasi.

Kishilar mehnatining ijtimoiy ahamiyati.

O'rta guruhda mehnat to'g'risida qo'shimcha tasavvur va bilimlar beriladi:-

Harakat sifati haqida.

- Kishilarni mehnatini yengillatuvchi moslamalar.

- Kishilarning mehnatga muhabbati.

Katta va maktabga tayyorlov guruhida yana yangi tasavvur va bilimlar beriladi:

Kishilar mehnatni yengillatadigan mashina va mexanizmlar to'g'risida.

Kishilar mehnati jamoa xarakterida ekanligi to'g'risida.

Jamoa mehnati jarayonida kishilarning o'zaro munosabatlari to'g'risida.

Mehnat qahramonlari xalqimizning mehnat an'analari haqida.

Kattalar mehnati bilan tanishtirishning vosita va metodlari MTM da bolalarni kattalar mehnati bilan tanishtirish xar hil tashkiliy yo'llar va metodlar orqali amalga oshiriladi. Birinchi yo'l – ekskursiya, mashg'ulot, maqsadli sayrlar orqali bolalarni kattalar mehnati bilan tanishtirish har-xil tashkiliy yo'llar va metodlar orqali amalga oshiriladi. Bunda kuzatish, kino, diofilm, diapazitiv, teleeshittirish, badiiy adabiyot, ko'rgan va eshitgani to'g'risida suhbat, tarbiyachi va bolalarning hikoyalari. Tarbiyachining hikoya va tushuntirishi, didaktik o'yinlar kabi turli tuman metodlardan foydalaniladi. Ikkinchi yo'l-mashg'ulot va mashg'ulotdan tashqari vaqtlarda kattalar mehnatini bolalarga yaqinlashtirish. Gigiyenik va pedagogik jihatdan mumkin bo'lgan ishlarni (binoni tozalash, idish yuvish, yuvilgan kirlarni dazmollash va tahlash, bayram kiyimlarini tikish, bolalar bilan o'yin mashg'ulot uchun kerakli materiallarni tayyorlash va b) bolalar oldida bajarish. Kuzatish, ko'rsatib tushuntirish, suhbat, tarbiyachining so'zlab berishi va shunga o'xshash materiallardan foydalaniladi. Kuzatishdan keyin bolalar bilan shunga o'xshash mehnat turlarini tashkil etish maqsadga muvofiq bo'lar edi: kutubxonaga borib kelgandan keyin yirtilgan kitoblarni yamash, modalar atelyesiga borib kelgandan keyin qo'g'irchoqlarga kiyim tikish va hokazo.

Uchinchi yo'l-bolalarni kattalar bilan birgalikdagi mehnatlari. Bolalarning kattalar bilan birgalikdagi mehnatlari har xil bo'lishi mumkin (xona o'simliklarini yuvish, polizda ekin ko'chat yoki urug'larni ekish uchun jo'yaklar tayyorlash, binoning ichini tozalash va boshqalar).

Bolalarni kattalar bilan birgalikdagi mehnatlarini tashkil etish shakllari ham ish mazmuniga qarab har xil bo'ladi.

Asosiy ishni kattalar bajarishadi, bolalar qo'llaridan kelgunicha ularga yordam beradilar.

Tarbiyachi ishni boshlab beradi, qolganini bolalar o'zlari mustaqil tarzda davom ettiradilar.

Kattalar boshlab beradi, bolalar davom ettiradi, keyin esa bolalar va kattalar birgalikda bajarishadi.

Bolalar kattalar bilan birgalikda mehnat qilishlari orqali mehnat malaka va ko'nikmalarini tez va oson egallab oladilar, ularning kattalar mehnati to'g'risidagi bilimlari boyiydi, bunday mehnat bolalarga quvonch bag'ishlaydi. Bolalarni kattalar mehnati bilan tanishtirishda hamma metod va vositalardan keng ravishda foydalaniladi. Bog'cha yoshidagi bolalarning xatti- harakatlari va xulq atvorlarning motivlari ham o'zgarib, rivojlanib boradi. Katta yoshli bog'cha bolalarining xatti harakat motivlari to'la aylangan motivlardan iborat bo'ladi. Masalan: katta yoshdagi bog'cha bolalarining xatti harakatlari xulq atvorlari asosida yotgan motivlar har tomonlama katta odamlarga o'xshashdan iboratdir. Ular ana shunday kuchli mayl asosida taqlidiy o'yinlarni, ta'limiy ya'ni didaktik mashg'ulotlarni va mehnat mashg'ulotlarini tashkil qilib o'tkazadilar. Bolalarning asosiy maqsadlari katta odamlar bilan o'zaro munosabatlarni mustahkamlashdir. Bolalar katta kishilar bilan yaxshi munosabatlar o'rnatishga intilar ekanlar, ular kishilarning buyurgan topshiriqlarini bajarishga, o'rnatgan tartib qoidalariga so'zsiz bo'ysunishga harakat qiladilar. Bolaning bog'cha yoshidagi davrida o'z qadr qimmatini anglashi ham yuzaga kela boshlaydi. Bolalar bog'chaga kelganda dastavval o'z tengqurlarini sezmaslikka, payqamaslikka harakat qiladilar. Keyinchalik turli o'yin va majburiy mashg'ulotlar davomida bolalar jamoasiga qo'shilib, o'z tengqurlarini hurmatini qozonishga harakat qiladilar, ya'ni boshqa bolalarga har tomonlama yaxshi ko'rinishga intiladilar. Bog'cha yoshidagi bolalar xatti-harakatlari motivlarining rivojlanishida axloqiy motivlarning roli nihoyatda kattadir. Bolalar o'z xatti- harakatlarini anglaganlari sayin axloqiy motivlarning ya'ni ijtimoiy axloqiy qoidalarga rioya qilish motivlarining o'rni kuchayib boradi.

Bolalar endi o'zlarining egoistik motivlari yuzasidan emas, balki ijtimoiy manfaat nuqtai nazaridan harakat qilishga o'rgana boshlaydilar. Masalan: Bolalar o'zlari yoqtirgan, o'zlariga eng yoqadigan o'yinchoqlarni boshqa bolalarga beradigan va hattoki, o'zlarini uyidan olib kelgan shirinliklarini ham bo'lib beradigan bo'ladilar.

1.2 Bolalarga mehnat tarbiyasi berishda allomalarning fikrlari

Sharq mutafakkirlarimehnat tarbiyasi haqida. Ta'lim-tarbiya tarixiga nazar tashlar ekanmiz, dastlabki xalq og'zaki ijodi namunalaridan tortib, buyuk mutafakkirlar



ijodigacha yoshlarni mehnatsevar bo'lib yetishishi, kasb-hunar o'rganish, mehnat ahlini hurmat qilish hamda mehnat insonni ulug'lash masalalariga alohida e'tibor berilganligiga guvoh bo'lamiz.

Buni biz turli davrlarda yaratilgan ta'limiy-axloqiy asarlar va xalq og'zaki ijodi namunalari topishmoq, xalq qo'shiqlari, masal, maqol, ertak va dostonlarda mehnat va kasb-hunar odobi, axloqi va qoidalarini o'zlashtirish muhim hayotiy zarur ekanligi ta'kidlanadi.

Bundan tashqari «Avesto», Kaykovusning «Qobusnoma», Abu Nasr Forobiyning «Fozil odamlar shahri», Abu Rayhon Beruniyning «Geodeziya», «Minerologiya»,

Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'atit turk», Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Alisher Navoiyning bir qator asarlari va shu kabi ma'rifiy meros namunalarida mehnatsevarlik, kasb-hunarning ahamiyati haqida muhim fikrlar bayon etilgan. Bular dastlabki xalq og'zaki ijodi namunalaridagi xalq eposlari, ertak, maqol va topishmoqlardan boshlangan.

Mana shunday ertaklardan biri, «Aql va boylik» ertagidir. Bunda chol to'rt o'g'liga qarata «Kim aqlli va davlatmand bo'lsa, o'sha oila boshlig'i bo'lib qoladi», degan so'zlariga o'g'illaridan biri zumrad ko'zli oltin uzugi, ikkinchisi zarbof choponini, uchinchisi esa qimmatbaho kamaraini ko'rsatadi. Kenja o'g'il esa otasining savoliga «Menda zumrad ko'zli uzuk ham, zarbof chopon ham, qimmatbaho kamar ham yo'q. Lekin mehnatkash qo'lim, botir yuragim, aqlli boshim bor», - deydi va otasi uni oila boshlig'i qilib, uy-ro'zg'orini meros qoldiradi.

Ko'rinib turibdiki, xalq bu ertak vositasida yoshlarga insonni hayotda baxtli qila oladigan narsa q mehnat degan g'oyani ilgari surgan.

Faqat ertaklarda emas, xalq maqollarida ham mehnatsevarlik, mehnatda hamkorlik, mehnatning insonni baxtli-saodatli qilishi ifodalangan. Maslan:

Daryo suvini bahor toshirar,

Inson qadrini mehnat oshirar.

Oltin o'tda bilinar,

Odam mehnatda.

Mehnatda do'st ortar,

g'iybatdan dushman.

kabi maqollar shular jumlasidandir.



Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asarida esa, shahar va qishloq xalqini ijtimoiy tabaqalarga ajratib, dehqonlar,

hunarmandlar, chorvadorlar, olimlar, tabiblar va boshqalar haqida soʻzlab, ularning jamiyat hayotidagi oʻrniga alohida toʻxtalib oʻtadi. Turli kasblar, ayniqsa, dehqonchilik, hunarmandchilik va chorvachilikka oid fikrlarini bayon etadi. U dehqon, hunarmand va chorvadorlarni jamiyatning moddiy boyliklarini yaratuvchi sifatida taʼriflaydi.

Masalan, alloma dehqonlar haqida:

Qalugʻ tebranurka bulardan asoʻgʻ,

Tuzuk tegir ye ichimdan tatoʻgʻ.

(Hamma qimirlagan jonga bulardan manfaat (boʻladi),

Hammasiga yoyim (va) ichimdan halovat yetadi)⁴⁶.

deb dehqonlar mehnatini ulugʻlash bilan birga, hunarmandlar haqida ham «juda zarur kishilardir ... temirchi, tikuvchi, etikdoʻz, suvchi, egarchi, toshchi, oʻqchi, kamonchilarning foydasi katta. Ularni sanay berib koʻzim uzayib ketdi. ... Bu dunyoga ular yaxshilik keltiradilar. Ular judakoʻp ajoyib narsalarni ishlaydilar», - deb oʻzining xayrixoxligini bayon etadi va hukmron doiralarga mehnatkashlar bilan munosabatda boʻlish shartlari xususida oʻz tavsiyalarini bayon qiladi. Dehqonlarga nisbatan:

Bularga qatilgʻil, qarilgʻil oʻzun

Tilin yoʻqshi sozla, achuq tut yuzun.

(Oʻzing bular bilan aralashgin, qoʻshilgin,

Tilda yaxshi soʻzla, yuzingni ochiq tut).

Hunarmandlarga nisbatan:

Keraklik kishilar yema bu sena,

Yoʻqoʻn tut bularoʻgʻ tosulgʻay tona.

(Bular ham senga kerakli kishilardir,

Bularni yaqin tut, foydasi tegadi (ey) bahodir)47.

Chorvadorlarni ham haqiqiy mehnatkash inson sifatida ulug‘lab:

qato‘lg‘il, qaro‘lg‘o‘l, yetur ham ichur,

Ko‘nchilik uzala tirig‘lik kechur.

Neku qulsa bergil, kerek bo‘lsa al,

Ko‘ni ko‘rdim ushbu qutu bilmas al.

(Aralashgin, qo‘shilgin, yedir ham ichir,

To‘g‘rilik ichra tirikchilik kechir.

Nima so‘rasa bergil, kerak bo‘lsa ol

Chindan ko‘rdim ushbu odamlar

Hiyla-nayrangni bilmaydi(lar)48.

Yusuf Xos Hojibning mehnat ahli haqidagi bu fikrlari haqiqatan ham ularga nisbatan hurmat va ehtiromni anglatadi. Yusuf Xos Hojibning mehnat tarbiyasiga oid progressiv qarashlari tarbiyaviy jihatdan diqqatga sazovordir.

XV asarning yirik mutafakkiri Alisher Navoiyning mehnatkash insonni ulug‘lovchi, mehnat tarbiyasi haqidagi fikrlari «Hayratul abror», «Farhod va Shirin», «Mahbub-ul qulub» asarlari ham mavjud.

Alisher Navoiyning haqiqiy inson uchun eng yaxshi fazilatlardan biri mehnatsevarlik deb ko‘rsatadi. U «Hayratul abror»ning beshinchi maqolatida kishilarning saxovatiga ko‘z tikishdan ko‘ra o‘z qo‘li bilan hayot kechirish ulug‘roq va oliyjanobroq ekanligini «Hotam Toyi»49 hikoyatida keltiradi.

Hotam Toyi bir kuni qo‘y-qo‘zilar so‘ydirib, xalqqa katta ziyofat beradi. So‘ng biroz dam olish uchun dalaga chiqadi. Unga yelkasida o‘tin ko‘tarib kelayotgan bir chol uchraydi. Hotam Toyi unga «Dashtda yurib bexabar qolgandirsan, tashla bu og‘ir yukni, Hotam o‘yiga borib ziyofaida izzat ko‘rgil», - deydi. Shunda chol

kulib: «Ey, oyog‘iga hirs band solgan, g‘ayrat vodiysiga qadam urmagan kishi, sen ham bu tikan mehnatini chekkin va Hotamning minnatidan qutulgin», - deb javob qiladi.

Hotam Toyi cholning bu so‘zlariga tan beradi va halol mehnat bilan kun kechirishi uning himmatidan baland ekanligini anglaydi.



Alisher Navoiy mehnatning insonni go‘zallashtirishi, faqat mehnat tufayligina insonning kamol topishi mumkinligini ta’kidlaydi. Shu maqsadda u qator mehnatsevar badiiy obrazlarni yaratadi. Masalan,

«Farhod va Shirin» dostonining asosiy qahramoni Farhod ana shunday qahramonlar jumlasidandir.

Farhod Armaniston o‘lkasiga qadam qo‘yganda, o‘z yurtida qorandan o‘rgangan tosh yo‘nish hunarini ishlatib, og‘ir mehnatdan ezilgan xalqqa yordam beradi. O‘z hunari, mehnati tufayli bir tomondan xalqning og‘ir mehnatini yengillashtirgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan sevgilisi Shirinning hurmatiga sazovor bo‘ladi.

Farhodning mehnatsevar va ijodkorligidan ilhomlangan Alisher Navoiy o‘z dostonining ikkinchi nomini «Mehmonnoma» deb ataydi.

Mehnatga muhabbat, ijodkorlik dostonning markaziy masalalaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Navoiy «Mahbub-ul qulub» asarida esa turli ijtimoiy guruhlarining hayotidagi o‘rnini belgilaydi, fazilat va nuqsonlarini ko‘rsatadi. Dehqonlar to‘g‘risida fikryuritar ekan, «Dehqonki dona sochar, yerni yormoq bila rizq yo‘lin ochar. ... Olam ma’murlig‘i alardin va olam ahli masrurlig‘i alardin. Har qayonki, qilsalar harakot, elga ham qut yetkurur, ham barakot»⁵⁰, - deb dehqonlarni, ya’ni, mehnatkash insonni ulug‘laydi. Shu bilan birga shoir bu asarida tekinxo‘rlarni, nojo‘ya ish tutuvchi kishilarni, ochko‘z va ta’magirlarni, mehnat qilmay hayot kechiruvchi shaxslarni tanqid qiladi.

Ma'rifatparvar shoir Furqat ham o'zining ma'rifiy she'rlarida ilm, hunar haqida fikr yuritar ekan, har bir sog'lom fikrlovchi insonni hunar egallashga da'vat etadi, hunarga mehr qo'ygan, uni o'rganishni da'vat etgan kishining jahonda qadri baland bo'lajagini uqtiradi.

Pedagog ,shoir H.H.Niyoziy esa maktab yoshlarni ilmli, odobli qilib tarbiyalashi va hunarga o'rgatishi kerak, - deb ta'kidlagan ekan, yoshlar ma'naviy fazilatlarining shakllanishida mehnatning rolini yuqori baholaydi. She'rlarida bolalarni otalarining mehnati qadriga yetishga undaydi.

Hamza Hakimzoda Niyoziy yoshlikda ilm olishning ahamiyati haqida gapirar ekan, «O'qi», «Kitob», «qalam» kabi she'rlarida ilmni mehnatsiz egallab bo'lmasligi to'g'risidagi g'oyani ilgari suradi.

U yoshlarga kelajakda o'z orzulariga yetishish, ilm-fanni egallash uchun yoshlikdan mehnat qilish zarurligini ta'kidlaydi.

Yuqoridagi fikrlar o'quvchi-yoshlarning mehnat tarbiyasida muhim vosita sanaladi.

2.3 Mashg'ulot ishlanmalari

Mavzu: Mavsumiy o'zgarish, uchib ketuvchi qushlar.

Faoliyatning maqsad: Bolalarning tevarak-atrof haqidagi bilimlarini kengaytirish. Bir yilda nechta fasl borligini ketma-ketlik bilan o'rgatish. Kuz faslida nechta oy bo'lishi va ketma-ketligini o'rgatish. Kuz faslining belgilari haqida ma'lumot berish. Savollarga aniq, to'liq javob berishga o'rgatish. Yangi so'zlarni to'g'ri va aniq talaffuz qilishga o'rgatish. Mavzuga doir she'rlarni harakatlar bilan yod oldirish, javoblarni to'g'ri talaffuz qilish, qaysi qushlar uchib ketadi-yu, qaysi qushlar qishlab qoladi, qushlarning turlari, o'xshash va farqli tomonlarini taqqoslaydi. Mavzuga doir she'rlarni harakat bilan birga bajarib yod olishga, topishmoqlarni topishga o'rgatish, bog'langan nutqini o'stirish

Kerakli jihozlar:

Mavzuga oid suratlar va ko'rgazmalar.

Faoliyatning borishi:

Tarbiyachi: Assalomu alaykum bolajonlar! Kayfiyatlaringiz yaxshimi?

Bolalar javobi: Xa!!!

Tarbiyachi: Barakalla bolajonlar! Biz sizlar bilan Ona vatanimiz O'zbekiston xaqida, maxallamiz kuchalari, oilamiz, o'z uylarimiz haqida juda ham ko'p ma'lumotlarni o'rganib oldik. Bugun esa sizlar bilan, o'lkamiz fasllaridan kuz faslidagi o'zgarishlar, qushlarning kuz faslidagi hayoti haqida, tabiat va qushlarni parvarishlash to'g'risida suhbatlashamiz. Bolalar o'lkamizga kuz fasli kirib kelganligini qanday bilsak bo'ladi?

Bolalar javobi: Hamma mevalar pishadi, daraxtlarning barglari sarg'aya boshlaydi!

Tarbiyachi: Judayam to'g'ribolajonlar! Yoz fasli tugab, kuz fasli boshlanishini, ob-havodagi o'zgarishlardan, atrofdagi daraxtlarning barglari sarg'aya boshlashidan, havo esa soviy boshlashidan va o'lkamizda yashaydigan ayrim qushlarimizni bir joyga to'planib, issiq o'lkalarga uchib keta boshlashidan ham bilib olishimiz mumkin. Bolalar o'lkamizdagi qushlarning hammasi sovuq kunlar boshlanishi bilan, issiq o'lkalarga uchib ketishadimi?

Bolalar javobi:

Tarbiyachi: Bolalar bizning o'lkamizda qishlab qoluvchi qushlar ham bor bo'lib, sizlarga shu qushlar haqida hikoya aytib beraman.

O'lkamizning go'zal yam- yashil o'tloqlari-yu, g'arq pishgan mevali bog'larida sayr kilib, tinmay sayrab, yayrab ajoyib bir qushcha yashar ekan. U qushcha faqatgina u shoxdan, bu shoxga qo'nib doimo har tomonlarga bemaqsad uchib o'ynab yuraverarkan. U bir kuni atrofida tinim bilmay kichkinagina tumshug'ida bir narsalarni tashib uy qurayotgan qushni ko'ribdi va bir oz kuzatib turganidan so'ng, unga qarab, - Buncha ham jon kuydirib uy quravermasang, undan ko'ra mazza qilib osmonlarga parvoz qilib, uchib, o'ynab yursang bo'lmaydimi? Namuncha o'zingni qiynamasang?- debdi.

Bu qush qaldirg'och ekan.

U chumchuqvoyga qarab, men tezroq polaponlarim uchun uy qurishim kerak. Ularni shu uyda parvarishlab, qornini to'yg'azaman, uchishga o'rgataman, ular katta bo'lib, mavsumiy o'zgarishlar boshlanganida, kunlar soviy ketganida issiq o'lkalarga uchib ketamiz. Bu yerda qish tugab, bahor kelganida esa qaytib, yana uchib kelamiz. Kelganimizda esa biz yashashimiz, tunashimiz uchun bizni uyimiz kutib turgan bo'ladi. Hech ham qiynalmaymiz, - debdi. Qushcha chumchuqvoy bo'lsa, bu gapga beparvogina qarab, mayli bilganingni qil, lekin men mazza qilib o'ynab, uchib yuraman! – debdi-da ,xohlagantomoniga qarab uchib ketibdi. Shu

zaylda qaldirg'och o'z uyini bitiribdi, polaponlar ochib chiqibdi, ularni issiqqina, bexavotir boshpanasida mehnat bilan voyaga yetkazibdi. Chumchuq esa o'ynab-o'ynab, sovuq tushib, asta-sekinlik bilan kuz so'ng esa qish fasli kirib kelganini ham bilmay qolibdi. U juda ham sovuqdan qayerga berkinishini bilmay qolibdi. Shu payt uning ko'zi o'z bolalari bilan issiq o'lkalarga uchib ketishga tayyorlanayotgan qaldirg'ochga tushibdi. Unga qarab meni ham olib ketinglar deb yalina boshlabdi. Qaldirg'och esa bunday uzoq safarlarga sening jajjigina qanoting yaramaydi. Halok bo'lishing mumkin. Olib keta olmaymiz,- debdi. Bu javobdan qo'rqib ketgan qushcha- Endi nima qilaman? Axir sovuqdan halok bo'laman – ku!- deb chirkilib yiglay boshlabdi. Qaldirg'ochni unga rahmi kelibdi. – Chumchuqvoy biz yana qaytib uchib kelgunimizcha, bizning inimizda yashab turishing mumkin,- debdi. Qushcha bundan xursand bo'lib, unga rahmat aytibdi. Qishni ana shu qaldirg'och inida o'tkazibdi. Yana bahor kelib, qaldirg'och ancha katta bo'lib qolgan polaponlari bilan uchib kelganidan so'ng, ularning inini bushatib beribdi. Chumchuqvoy qaldirg'ochlar bilan bir umr do'st bo'lib qolibdi.

Tarbiyachi: Qalay hikoyam sizga yoqdimi?

Bolalar: Ha!

Tarbiyachi: Bolalar Chumchuqvoy qanday qush edi?

Tarbiyachi: U yoz faslini qanday o'tkazdi?

Tarbiyachi: Agar u ham befoyda vaqtini sarflab o'ynab yurmasdan, o'zi uchun in qurganida, kuz kelib kunlar soviy boshlagidan qo'rqmas edi. U to'g'ri ish qilganmi?

Bolalar yo'k! U ham o'ziga in qurishi kerak edi.

Tarbiyachi: Albatta, u noto'g'ri ish qilib. hayotini xavfga qo'ygan. Agar unga qaldirg'och inini bermaganida u sovuqdan muzlab qolgan bo'lar edi. Bolalar qaldirg'och nega issiq o'lkalarga uchib ketadi?

Bolalar: Chunki, ular issiqsevar qushlar!

Tarbiyachi: Judayam to'g'ri. Ular qayerlarga in qurishadi?

Bolalar:Ular bizning uylarimizning peshtoqlariga uya qurishadi!

Tarbiyachi: Judayam yaxshi!

Tarbiyachi:Qani endi, bolalar sizlar bilan «Bu qachon bo'ladi?»

o'yinini birgalikda o'ynaymiz.Pedagog bolalarga “Bu qachon bo'ladi?”

o'yinini o'ynashni taklif qiladi.O'yin qoidasini tushuntirib, savollarga

javob berib unga mos bo'lgan yil fasllarning rasmlarini topishni aytadi:

Quyosh nur sochmaydi, hammayoqni oppoq qor qoplaydi,

Bolalar qordan qorbobo yasaydilar,

Aytingchi, bolalar bu qachon bo'lar?*(qish)*

Qorning erib bitishi,

Qishboboning ketishi,

Ariqlarning oqishi

Anhor to'lib oqishi.

Aytingchi, bolalar bu qachon bo'lar?*(bahor)*

Quyosh qattiq qizdiradi, mevalarni pishiradi,

Bolalar cho'milishadi, o'zlarini chiniqtirishadi.

Aytingchi, bolalar bu qachon bo'ladi? *(yoz)*

Sarg'ayadi ko'katlar, barg to'kadi daraxtlar,

Dalalardan hosil yig'ib olinar.

Aytingchi, bolalar bu qachon bo'lar? *(kuz)*

Tarbiyachi: Qaysi fasldan keyin kuz keladi bolalar? Mana bu rasmlardan qaysi birida

kuz fasli tasvirlangan?

Bolalar: Kuz fasli tasvirlangan suratni topishadi va tasvirdagi xolatni gapirib berishadi.

Mavzu:“Hasharotlar”.

Maqsad : Hasharotlar rasmlariga qarab hikoya qilishga o’rgatish va lug’atni faollashtirish.

Ta’limiy maqsad: Tabiatdagi hasharotlar va ularning mehnatdagi ahamiyati haqidagi qiziqishlarini oshirish, o’yinlar orqali bilimlarini mustahkamlash.

Tarbiyaviy maqsad:Bolalargni tirik mavjudotlarga, hasharotlarga yaxshi munosabatda bo’lishni o’rgatish.

Rivojlantiruvchi maqsad: Mantiqiy fikrlash, xotira, diqqat qobiliyatlarini rivojlantirish.

Davlat talabi: Kichik guruhda lozim bo’lgan bilim va ko’nikmalarni bolalarga singdirish. Bola nutqni tinglaydi va anglaydi, so’zlashadi va muloqat qiladi.

Faoliyat uchun kerakli jihozlar: Faoliyat uchun ko’rgazmali qurollar to’plami, sambufer, chip, fleshka.

Faoliyatning borishi:Tashkiliy daqiqa.

Tarbiyachi: Salom bolajonlar!

Bolalar:Salom.

Tarbiyachi: Bolajonlar bugungi o’yinimizni topishmoq topish bilan boshlaymiz. Topasizlarmi? (*Bolalar javoblari*).

Tarbiyachi: Unda diqqat bilan quloq tuting.

1.Gullar qimirlab qoldi

To’rt yaprog’i bor ekan.

Uni uzmoqchi edim

Bir zumda qochib qoldi.(*Kapalak*).



2.Gullar sharbatin emib
G'iz-g'iz etib ucharlar.
Bizlarni xursand etib



Asal bilan siylarlar.(*Asalari*).

3.Kun bo'yi uchib yurar
Hammadir undan bezor.
Kun bo'yi ucha, ucha



Kechasi pisib yotar. (*Pashsha*).

Tarbiyachi: Rahmat bolajonlar. Bolalar aytinglarchi bir soʻz bilan kapalak, asalari va pashshani nima desak boʻladi?

Bolalar: Hasharotlar!

Tarbiyachi: Toʻgʻri bu hasharotlar! Ular qanaqa qilib harakatlanadilar?

Bolalar: Uchadilar.

Tarbiyachi: Yana nima qiladilar?

Bolalar: Aylanadilar, sakraydilar, sudraladilar, hakkalaydilar, vizzillaydilar, jaranglaydilar. va h.k.

Tarbiyachi: Sizlar biror marotaba haqiqiy hashoratlarni koʻrganmisizlar?(Ha!).

Tarbiyachi: Sizlarga hashorotlar yoqadimi? (Ha!).

(Bolalarning hashorotlar bilan tanishish, bilish haqidagi bir necha javoblari tinglanadi).

Didaktik oʻyin-“Nima oʻzgargan”

1-varianti: Tarbiyachi hashoratlarni doskaga ular uchun kerakli joylarga oʻrnatadi. Masalan: Kapalaklarni gullarga, CHigirtkani maysalarga, Qoʻngʻizni barglarga, shox novdalariga ipak qurtini, Ninachini gul ustiga, Xon qizi qoʻngʻizini barglar ustida uchib yurganlarini bolalardan aytib berishni va ular qayerda turganliklarini koʻrib olishni soʻraydi. SHundan soʻng tarbiyachi bolalardan koʻzlarini yumib turishni soʻraydi va 2-3 ta hashoratning joylarini almashtirib qoʻyadi. Soʻng koʻzlarini ochishlarini soʻrab, qaysi hashoratni joylari oʻzgarganligini aytib berishlarini soʻraydi. Oʻyin shu tariqa davom etadi.

“Nima qaerda yashaydi” o’yini.

2-varianti tarbiyachi barcha hashoratlarni olib qo’yadi va bolalardan kapalak, chigirtka, qo’ng’iz, ipak qurti, ninachi, Xon qizi qo’ng’izlarini qaerlarda turishini so’raydi. Bolalar esa hasharotlarni kerakli joylarga joylashtirib chiqadilar. O’yin shu tariqa davom etadi.

Tarbiyachi: O’yinimiz yoqdimi? (Ha). Bo’lmasam yana bir ajoyib o’yin o’ynaymiz. Hohlaysizlarmi? (Ha). O’yinimizning nomi “Meni muloyimlik bilan chaqiring” deb nomlanadi. Men sizlaraga biror bir hasharotlarni nomini aytaman, sizlar esa uni muloyimlik bilan erkalatib aytasizlar.

“Meni muloyimlik bilan chaqiring”

Qo’ng’iz-Qo’ng’izcha.

O’rgimchak-O’rgimchakjon.

Chivin-Chivincha

Asalari-Asalcham.

Ninacha-Ninachajon.

Ari-Aricha.

Tarbiyachi: Endi esa so’zlarni ko’plikda aytatmiz. Navbatdagi o’yinimiz “Bitta va ko’pgina” deb nomlanadi.

Pashsha-pashshalar.

Qo’ng’iz-qo’ng’izlar.

O’rgimchak –o’rgimchaklar.

Chivin-chivinlar.

Asalari-asalarilar.

Tarbiyachi: Bolalar kelinglar biz sizlar bilan hozir “Barmoq gimnastikasini” qilib olamiz.

Hasharotlar nomini

Barmoq bukib sanaymiz.

Kapalak, chigirtka, (*sinchaloqdan bukiladi*)

Asalari va pashsha.

Bu Qo'ng'iz qorni katta(*oxiri katta barmoq*).

Qayer jiringlayapti

Voy-voy Chivin kelyapti.

Tezroq bekinib turing.(*Qo'llar orqaga berkitiladi*).

Chaqib oladi biling!

Tarbiyachi: Endi hasharotlar haqida suhbat quramiz.

-Bu Kapalak. U hasharotdir. Uning chiroyli gullik qanotlari bor. U guldan gulga qo'nib uchib yuradi.

-Bu Asalari. U hasharotdir. U gullar changidan asal yig'adi. Uning qanotlari qora. U qattiq g'o'ng'illaydi.

-Bu Chigirtka. U hasharotdir. U maysalar ustida sakrab yuradi.

-Bu Xon qizi qo'ng'izi. U hasharotdir. U o'simliklar barglaridagi yomon shiralarni yeb daraxtlarga foyda keltiradi.

Shundan so'ng ,bolalar diqqat bilan eshitib kichkina hikoyachalar tuzadilar.

So'ng, bolalar tarbiyachi ko'rsatgan hasharotlarning rasmlarini bolalarga ko'rsatib ular qanday qilib harakatlar qilishlarini so'raydilar.

Kapalak-qanot qoqadi.

Asalari-uchadi.

Ipak qurti – o'rmalaydi.

Chigirtka-sakraydi.

Tarbiyachi barcha bolalarga minnatdorchilik bildiradi va bolalarga hashoratlarni bo'yash uchun "O'zing bo'ya" nomli rasmlarni bo'yash kitobchasini sovg'a qiladi.

Tarbiyachi:Barakalla bolajonlar.Judayam chiroyli o'yin o'ynadilaring.Endi yana o'yinlarimizni o'yin markazlarida davom ettiramiz. Hozir xohish bo'yicha guruhlariga bo'linib olamizda, san'at markazlarida o'ynaymiz.

1-guruhdagilar esa aplikatsiyadan "Chumolini" yasab yelimlaydilar.

2-guruhdagilar "Kapakak" rasmini chizadilar.

Marhamat bolajonlar xohlagan va yaxshi ko'rgan guruhlarini tanlab o'yinni boshlashingiz mumkin..

(Bolalar o'yin markazlarida o'ynayotganlarida tarbiyachi sambuferdan

hasharotlar haqida qo'shiq va musiqalar qo'yib qo'yadi. Faoliyat so'ngida tarbiyachi bolalar qilgan ishlari bo'yicha tahlil qiladi va hamma bolajonlarni rag'batlantiradi).

UMUMIY XULOSALAR

Maktabgacha ta'lim muassasalarida mehnat ta'limi mashg'ulotlari zahirida, m'naviy, milliy, madaniy, moddiy qadriyatlarimizdandan hisoblangan xalq hunarmandchiligining turli yo'nalishlarini o'rganish va yoshlarga o'rgatish ishlarini yo'lga qo'yilishi ushbu sohalarning didaktik, tarbiyaviy imkoniyatlari beqiyos ekanligini ko'rsatadi.

Davlatimizning ham bu sohani rivojlantirishga berayotgan jiddiy e'tibori ham turli xil qonunlar, farmonlar, qarorlar, buyuruqlar va farmoyishlarda o'z o'rnini topmoqda. Xususan-PQ 27-01 Ushbu qaror 2016-yil 29-dekabrda qabul qilingan. Qarorning maqsadi 2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish hisoblanadi. Ta'lim tarbiya jarayonida zamonaviy texnologiyalarni tadbiiq qilish, bolalarni har tomonlama rivojlantirish uchun shart-sharoitlar belgilash. Maktabgacha ta'lim muassasalarini malakaviy- pedagogik kadrlar bilan taminlash. O'zbekiston Respublikasining prezidenti Sh. Mirziyoyev 2017-yil 30-sentabrdagi PQ 33-05 sonli O'zbekiston Respublikasining Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tshkil etish to'g'risidagi qarori hamda O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2016-yil 29-dekabrda PQ 27-07 sonli 2017-2021-yillarda Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risidagi qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari ilovaga muvofiq tasdiqlandi va buyruq rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kirdi.

Respublikamiz ishlab chiqarishida, xalq xo'jaligida, ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanishida ushbu farmonlar va qarorlarning ijrosini taminlash to'g'risidagi islohotlar ta'lim tarbiya tizimida o'z o'rnini topmoqda. Zero, xalq mehnat tarbiyasi negizida ta'limli ravishda bolalarga o'rgatib borilishi, nafaqat ushbu qonuniy - meyyoriy hujjatlarning amaldagi ijrosini taminlaydigan bolalarni kelgusi hayotidagi yo'lini topib ketishi uchun munosib hissa bo'lib qo'shiladi.

Bolalarni mehnat tarbiyasiberish orqali Vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ularni vatanimiz o'tmishi meroslari bilan tanishtirish orqali "O'zbekiston kelajagi buyuk davlat" bo'lishiga ishonch tuyg'usini tarkib toptirishdir.

Xulosa o'rnida shuni alohida takidlash joizki, maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim tarbiya berishning asosiy maqsadlaridan biri ularni ham aqlan, ham jismonan barkamol shaxs sifatida shakllantirishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "Ilk qadam" Maktabgacha ta'lim muassasasining davlat o'quv dasturi. Toshkent-2018-yil.
2. "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari". Toshkent-2018-yil.
3. "Maktabgacha pedagogika". F.Qodirova, Sh. Toshpo'latova, N. Qayumova, M. Azimova, Toshkent-2019-yil.
4. "Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi". Z.Nishonova, G.Alimova. Toshkent-2006-yil.

5. "Maktabgacha pedagogika". Sh. Sodiqova. Toshkent-2006-yil.
 6. "Tarbiyachi kitobi" N.Erxonova, Z. Ro'ziyeva. Toshkent-2019-yil.
 7. "Maktabgacha pedagogika". N. Qayumova. Toshkent-2013-yil.
 8. "Maktabgacha pedagogika". O'quv uslubiy majmua Termiz-2018-yil.
 9. "Mehnat o'qitish metodikasi". R. Mavlonov, M, Satbayeva, Toshkent-2013-yil.
 10. "Maktabgacha ta'lim pedagogikasi" o'quv qo'llanma Toshkent-2011-yil.
 11. "Maktabgacha ta'lim jurnali" №2 2017-yil.
 12. Olti yoshli bolalarni ma'ktabga tayyorlash. K.Nizomova. Toshkent-2006-yil.
 13. "Tayyorlov guruhi tarbiyachilari uchun nutq o'stirish mashg'uloti ishlanmalari" Qadirova, Fayzulaeva, Rustamova. Toshkent 2010.
 14. Z.Nishanova G Alimova Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi Toshkent2006
- www.ziyonet.uz
- www.pedagogika.uz
- www.Google.